



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

«Himoyaga ruxsat etildi»  
Filologiya fakultet dekani, f.f.d.  
dots. \_\_\_\_\_ Q.Sidiqov  
«\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2019 y.

5120100 – filologiya va tillarni o'qitish (nemis tili )  
ta'lif yo'nalishi bitiruvchisi

Toshmatova Durdona Abdufozil qizining  
**«CHET TIL O'QITISHDA ONA TILI INTERFERENTSIYASI  
VA UNI BARTARAF ETISH MUAMMOLARI»**  
mavzusidagi

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

«Himoyaga tavsiya etildi»  
Nemis va fransuz tillari kafedrasи  
mudiri \_\_\_\_\_ Z.Tursunov  
«\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2019 й.

BMI rahbari: \_\_\_\_\_  
dots. S.Saydaliev

**CHET TIL O'QITISHDA ONA TILI INTERFERENTSIYASI VA UNI  
BARTARAF ETISH MUAMMOLARI**

<b>KIRISH.....</b>
<b>1-BOB. CHET TIL O'QITISHDA MAVJUD LINGVISTIK INTERFERENTSIYALAR.....</b>
<b>1.1. Interferentsiya lingvistik muammo sifatida.....</b>
<b>1.2. Fonetik interferentsiya.....</b>
<b>1.3. Grammatik interferentsiya.....</b>
<b>1.4. Leksik interferentsiya.....</b>
<b>1.5. Madaniyatlararo interferentsiya.....</b>
<b>Birinchi bob bo'yicha xulosalar.....</b>
<b>2-BOB. CHET TIL O'QITISHDA MAVJUD INTERFERENTSIYALARNI BARTARAF ETISH TEXNOLOGIYALARI.....</b>
<b>2.1. Qiyinchiliklarni bartaraf etishda til va nutq mashqlarining o'rni....</b>
<b>2.2. Interferentsiyani bartarf etish usullari.....</b>
<b>Ikkinci bob bo'yicha xulosalar.....</b>
<b>Umumiylar.....</b>
<b>Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....</b>

**Mavzuning dolzarbliji:** “Chet tillarni o’rganish tizimini takomillashtirish chora tadbirlari to’g’risida” qarordan kelib chiqqan xolda shuni ta’kidlash lozimki, hozirgi davr mutaxassisi kamida ikkita xorijiy tilni mukammal bilishi davr talabiga aylanib bormoqda.

Ayniqsa, nemis tilining mavqeい kundan kunga ortib borayotgan bir jarayonda xorijiy til ta’limida yangi pedagogik texnologiyalarni darslarga tadbiq qilish masalasi dolzarb bo’lib qolmoqda. Shuningdek, chet til o’qitish jarayonida vujudga keladigan qiyinchiliklarni nazorat qilish chet tilni egallash samaradorligin oshishiga imkon yaratadi.

Chunki, chet til ta’limi jarayonida turli qiyinchiliklarning vujudga kelishi o’quvchilarni qiynashi, til o’rganishga bo’lgan qiziqishlarini pasaytirishi mumkin.

**Mavzuning o’rganilganlik darajasi.** «Chet til o’qitishda ona tili interferentsiyasi va uni bartaraf etish muammolari» masalasi metodik adabiyotlarda juda ko’p yoritilishiga qaramay, aynan nemis tili darslarida ularni bartaraf etish masalasi kam yoritilgan, shu mavzuga bag’ishlangan maxsus tadqiqotlar mavjud emas.

**Mavzuning nazariy va amaliy ahamiyati:** Ta’lim jarayonini pedagogik va metodik jihatdan to’g’ri tashkil qilishning muhim shartlaridan biri o’quvchilar duch keladigan qiyinchiliklarni nazorat qilish va bu faoliyat natijalarini baxolashdan iboratdir.

O’quvchilar duch keladigan qiyinchilikni nazorat qilish deganda «ishning narsaning axvoli, borishi, kishinig yurish – turishini kuzatish, tekshirish, taftish qilishni» tushiniladi (J. Jalolov). Nazorat zamirida kamchiliklarni bartaraf qilish, fonetik, grammatik va leksik qyinchilik va xatolarni tuzatish ishini yo’lga ko’yish singari ezgu niyatlar yotadi.

**Mavzuni tadqiq qilishning maqsad va vazifalari:** Shunday qilib ushbu BMI da nemis tili o’qitishda ona tili interferentsiyasi va uni bartaraf etish tadqiqoti masalalarini o’rganishni maqsad qildik:

Yuqoridagi maqsaddan kelib chiqib ushbu tadqiqotimizda quyidagi aniq masalalarни yechishni vazifa qilib oldik:

- interferentsiya lingvistik muammo ekanligini aniqlab olish;
- fonetik, grammatik va leksik interferentsiyalarni aniqlash;
- fonetik, grammatik va leksik interferentsiyalarni nazorat qilish usullarini ishlab chiqish;
- interferentsiyasini bartaraf etishda yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish masalalarini ko'rib chiqish.

**Mavzuni tadqiq qilishda foydalanilgan uslublar:** Mavzuni tadqiqoti uchun qiyosiy taxliliy metoddan foydalanildi.

**Mavzuni aprobatsiya qilganligi:** BMI Namangan Davlat Universiteti Filolgiya fakulteti nemis va frantsuz tillari kafedrasida muhokama qilingan va DAK ga himoya uchun tavsiya qilingan.

**Mavzu yuzasidan to'plangan materiallar** Chust tumanidagi umumta'lim mакtabida va NamDU qoshidagi ALda, amaliyot davrida olmon tili darslarida va darsdan tashqari o'tkazilgan tadbirlarda foydalanildi.

**Tadqiqotning ob'ekti:** BMI uchun til materiallari, autentik matnlar o'qishda va gapirishda duch kelinadigan qiyinchiliklar va mavjud metodik adabiyotlarda berilgan materiallar o'r ganildi.

**Tadqiqotning predmeti.** Tadqiqotimiz nemis tili o'qitishda ona tili interferentsiyasi va uni bartaraf etish asos qilib olindi.

**Ishning metodologik asosi.** Tadqiqotning metodologik asosi bo'lib Respublikamiz Prezidenti asarlaridagi g'oyalar, shuningdek Yevropa va o'zbek tilshunos olimlarning fikr va muloxazalari xizmat qildi.

**Ishning tarkibiy qismi.** BMI kirish, uch asosiy bob, xulosa hamda adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, jami 62 sahifani tashkil etadi.

# **1-BOB. CHET TIL O'QITISHDA MAVJUD LINGVISTIK INTERFERENTSIYALAR**

## **1.1. Interferentsiya lingvistik muammo sifatida**

Lingvovidaktikada muhim ilmiy-amaliy muammolardan biri interferentsiya hodisasiga munosabat masalasidir.

*Interferentsiya* psixolingvistikada *transpozitsiya/fatsilitatsiya* tushunchasi bilan fikran bog'lanadi, lingvometodikada esa *qiyinchilik va xato* tushunchalari bilan assotsiativ aloqaga kiradi (J.Jalolov, 1996).

Interferentsiyani odam fiziologiyasi fanida qabul qilingan irradiatsiya qonuni (I.P. Pavlov) hodisasi bilan izohlash imkoniyati ham mavjud.

Chet tillarni o'rghanishda ona tili ko'nikmalarini ta'sirining birinchi shakli *transferentsiya*, ikkinchisi *interferentsiya* deb yuritilishini bilib oldik, endi ularga batafsil to'xtalsak.

*Transferentsiya* hodisasi o'rganilayotgan tilga ona tili elementlari va ko'nikmalarining ijobiyligi ta'siri bo'lib, interferentsiya ayni omilning o'rganilayotgan til normalarining buzilishiga, xatolarga olib keladigan salbiy ta'siri bilan baholanadi.

*Interferentsiya* aslida fizika fani atamasi hisoblanadi. U ikki to'lqin (suv, havo, elektromagnit, yorug'lik to'lqinlari) tebranish ko'rsatkichlari qarama-qarshi bo'lsa, ma'lum sharoitda bir-birini to'liq yoki qisman so'ndirishini bildiradi. Interferentsiya faqatgina tabiat hodisalariga emas, shuningdek, o'ziga xos tarzda jamiyat hayotiga ham xos.

U lingvistikada anchadan buyon ishlatiladi. Ikki tillilik (bilingvizm) hodisalarida so'zlovchi asosiy tilining ayrim grammatik va lug'aviy xususiyatlari u ikkinchi tildan foydalanayotganda talaffuzida, gapidagi so'zlar tartibida, zarur so'zning aniq ekvivalentini topa olmay birinchi tilining elementlarini qo'llashida namoyon bo'ladi.

Chet tilini o'rganishda chogishtirma tilshunoslikning roli beqiyosdir. Chunki chogishtirma tilshunoslik chet tilini talabalarimiz uchun qiyin va oson tomonlarini (interferentsiyani) ko'rsatib bera oladi, ya'ni tillararo interferentsiyalarni va fatsilitatsiyalarni aniqlashga yordam beradi. Chogishtirma tilshunoslikning rivojlanishiga respublikamiz olimlari katta xissa qo'shganlar. Bugungi kunda respublika olimlari qo'shgan xissalarini ochib berishga katta extiyoj bor (Yusupov O'.Q., 2007, 26.).

Chet tili o'qitish *maqsadlari* va *shart-sharoitlari* til materialining hajmi va xarakterini, xususiyatini belgilaydi. Umumiy va xususiy tilshunoslik faktlariga qarab tillararo xildagi interferentsiya xodisasi bilan bog'liq, bo'lgan kiyinchilik tipologiyasi aniqlanadi hamda o'quv materialini tanlash va tashkil qilish amalga oshiriladi. Bu barcha muammolar majmuasining xal qilinishini tilshunosliq til materialining xarakteriga ega ekanligi, til va nutq, ularning o'zaro munosabati va vazifalari, til kontaktlari xakidagi tushuncha bilan bog'liqdir.

Biz bilamizki, o'quvchi, talaba chet tili o'rganayotganda u ona tilidan, rus tilidan *bilim*, *ko'nikma* va *malakaga* ega bo'ladi. Psixologlarning ta'kidlashicha, bularni o'quvchi yangi chet tiliga ko'chirishi mumkin. Bu ko'chirish, *salbiy* va *ijobiy* bo'ladi. O'quvchilar ona tili va rus tilidan bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalari yoki shu tillardan bo'lgan *tajribalarni ko'chirganda*, ular chet tilini o'rgatishda foyda bersa, bu ijobjiy ko'chishni *transpozitsiya salbiy ta'sir qilsa*, xalal bersa, uni *interferentsiya* deyiladi.

Tilda interferensiya hodisasi. Ikki turli til yoki dialekt vakillari bir-biri bilan so'zlashganda yoki yozishganda o'zaro til munosabatlari sodir bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, ikki yoki undan ortiq til egalari orasida vujudga keladigan nutqiy aloqa til munosabatlaridir. Masalan, o'zbeklar bilan tojiklar bir-biri bilan so'zlashganda, ya'ni til aloqasiga kirishganda o'zbek-tojik tili aloqasi sodir bo'ladi. Mazkur xolda o'zbek bilan tojik o'zbek tilida so'zlashganda, munosabat tili o'zbek tili bo'ladi. Agar ular tojik tilida so'zlashsalar, munosabat tili tojik tili bo'ladi. Ammo ular rus tilida ham so'zlashishlari mumkin. Bu xolda rus tili munosabat vositasi sifatida

qo'llangan uchinchi til bolib, bu «vositachi til» deb ataladi. Til munosabati natijasida tillar bir-biridan uzoqlashishi yoki bir-biriga yaqinlashishi mumkin. Uzoqlashish «*divergensiya*», yakinlashish «*konvergensiya*» deb ataladi. Til munosabati amalga oshishi uchun taraflarning biri yoki har ikkisi tilni ona tilini va qarshi taraf tilini yoki vositachi tilni bilishi shart. Ikki tilni bilish «*bilingvizm*» (ikki tillik) va ikki tilni biluvchi kishi «*bilingv*» deb ataladi. Bilingv bir tilning qonun-qoidalarini ikkinchi tilga noto'g'ri ravishda ko'chirishi mumkin. Mana shu hodisa «*interferensiya*» deb ataladi. Interferensiya asosan ona tilining qonun-qoidalarini o'zga tilga ko'chirishda vujudga keladi.

Xali yaxshi o'rganilmagan ijobiy ta'sir shundan iboratki, ona tilida tarkib topgan qator ko'nikmalar chet tilini o'zlashtirishga ko'chiriladi. Masalan, matnni ovoz chikdrib o'qish ko'nikmasini egallah bolalar yoki katta yoshdagilarda chet tilini o'rganayotgan savodli o'quvchilarga nisbatan katta qiyinchilik keltirib chiqaradi. Chet tilini o'zlashtirishda ona tili tizimini bilish, ayniksa, ona tili o'rganilayotgan tillarda o'xshash xodisalar mavjud bo'lganda, o'quvchilarga yordam beradi. Ana shunday ijobiy ta'sir *ko'chirilish* deb ataladi, sababi shuki, malaka va ko'nikmalar ona tilidan chet tiliga ko'chiriladi.

Shu bilan birga ona tili chet tilini o'zlashtirishga aks ta'sir ko'rsatadi. Uning mohiyati shundan iboratki, o'quvchi o'z ona tilining odatlangan me'yorini chet tiliga ko'chiradi. Masalan, o'quvchilar chet tili tovushlarini ona tili tovushlariga o'xshatib talaffuz qiladi. Ona tilidagi nisbatan erkin bo'lган so'з tartibi me'yorini G'arbiy yevropa tillariga olib kiradi, ona tilidagi o'xshash xodisalarining ma'nolarini chet tili xodisalariga nisbatan notug'gri qo'llaydi.

Tilshunoslikka oid izlanishlar shuni ko'rsatadiki, ikki til tizimining aloqasi davrida uchinchi tizim paydo bo'lib, uning to'zilishi yo'l qo'yilgan xatolar bilan ifodalanadi. Bunday tizim chet tilini o'rganayotgan kishi ongida xosil bo'ladi. Interferentsiyaning ko'rsatkichlari bo'lib xatolar xizmat qiladi. Ikki til tizimi kontakti paytida paydo bo'ladigan interferentsiya va ko'chirilish xodisalarini hisobga olib, metodikasi o'rganilayotgan chet tilini ona tili bilan taqqoslanishning

o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan xolda o'quv jarayonini tashkil qilishni ishlab chiqish talab etiladi. Chet til o'qitish metodikasii o'quv jarayonini shunday tashkil qilish kerakki, ko'chirilish xodisasi keng qo'llanishi va interferentsiya xodisasining oldi olinishini ta'minlanishi zarur.

Nutq faoliyatining asosiy til materiali o'z ichiga fonetik grammatick leksik materiallarni oladi. Keyingi paytlarda orfografiya ham kiritilyapti, lekin u dasturda yo'q.

Til materiali nemis tilini o'rgatishda muhim o'r'in tutadi. U hamma nutq faoliyatlar uchun asosiy material hisoblanadi. Usiz biz nutq faoliyatini egallay olmaymiz yoki uni amalga oshira olmaymiz.

Til, nutq vositalariga tilning tovush tizimini, ohangini, grammatick tuO'ilishini, leksikasini kirgizish mumkin. O'rta maktab dasturi nutq faoliyatlarini amalga oshirish uchun fonetik yoki talaffuz, grammatick leksik materiallarni belgilab ko'rsatgan. Bu til materialari tinglab tushunish, gapirish, o'qish, yozuvning muhim qismidir.

Til materiallarni o'rgatishda maktab, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari sharoitini, materiallarning xususiyatini, metodik tomonini hisobga olish zarur. O'quvchi, talaba nutq faoliyatini egallashi, bajarishi uchun nemis tili leksikasini, grammatickasini, nemis tili fonetik tizimi tanlab olinib o'rgatiladi. Tanlashning sabablari qo'yidagilar: Birinchidan, til materialari ko'p. Ularning hammasini o'rgatish qiyin. Xatto maxsus chet tili institutlarida ham ularning hammasini o'rgatib bo'lmaydi. Ikkinchidan, o'rta umumta'lim beriladi. Buning uchun esa hamma til materiali kerakmas. Uchinchidan, vaqt kam (dars soati kam). To'rtinchidan, metodika ilmiy nuqtai nazaridan ko'p til materialini o'rgatish o'rniga maxsus maqsad bo'yicha tanlagan oz sonli til materiali orqali nutq faoliyatini o'rgatish osondir. Bu yerda bir necha til materiali orkali nutq faoliyatini o'rgatish mumkin. Bu yerda bir nechta til materiali o'rniga qo'llash mumkin bo'lgan bitta til materiali tanlanib, uni nutq faoliyatida ko'proq faollashtirish ko'zda tutiladi. Natijada nutq faoliyatini o'stirishga vaqt ortadi. Beshinchidan, til materialini tanlashda faollashtiriladigan nutq faoliyatining turli xususiyatini

hisobga olishi zarur. Til materiallarning xususiyatini, ularni faollashtiriladigan nutq faoliyatining turli xususiyatlari hisobga olinib, ular maxsus tamoyillar asosida tanlanadi. Har bir til materiallari o'zining tanlash tamoyillariga ega.

Hozirgi kunda lisoniy interferensiya o'ziga xos xususiyatlari va bu haqida til sohibi tafakkurida turli tizimdagi tillarning xarakatlanish mexanizmlari to'g'risida olimlar tomonidan har xil fikrlar yuritilishi sababli ushbu hodisa tilshunoslikning dolzarb muommalarining biri hisoblanadi. Interferensiya atamasi M. Djusupovning konsepsiyasiga asoslanib ko'rastilgan. [Джусупов, 161-17-6].

Interferensiya atamasi tilshunoslik ilmiga Praga tilshunoslik to'garagi vakillari tomonidan kiritilgan. [Джусупов, 147-б.]. Bu lisoniy xodisaning yuzaga kelishi haqida fikrlar turlichadir, ammo interferensiyanı tillar munasabatidagi salbiy ta'sirlar deb tushunish keng tarqalgan. 41 Interferensiya til tizimining hamma sathlarida ro'y beradi, ya'ni tilning har bir sathida uning fonetik, leksik, grammatik va stilistik xususiyatlariga bog'lik bo'ladi, shu tufayli u fonetik interferensiya, leksik interferensiya va boshqa turlariga ajraladi. U. Vaynrayx interferensiyanı "ikki tilning o'zaro aloqaga kirishuv jarayonidagi til meyorlaridan chekinishi" deya talqin qiladi [Вайнрайх, 1979, 22-6.].

Til materiallari to'qnashuvidan kelib chiqadigan salbiy ta'sirni, interferentsiyani hisobga olib professor J. Bo'ronov 3 xil interferentsiyani mavjudligini kursatdi. 1. **Fonetik interferentsiya**. 2. **Gramatik interferentsiya**. 3. **Leksik interferentsiya**.

Boshqa adabiyotlarda interferentsiyaning quyidagi turlari uchraydi:

1. **Fonetik interferentsiya** (Samuylova N.I. Foneticheskaya interferentsiya i obuchenie proiznosheniyu // Psixolingvistika i obuchenie inostrantsev russkomu yaz{ы}ku. M., 1972).
2. **Gramatik interferentsiya** (Karlinskiy A.E. Tipologiya yaz{ы}kovoy interferentsii//Zarubejnoe yaz{ы}koznanie i literatura. Alma-Ata, 1972.v{ы}p. 2 S. 9 – 16.).

3. *Leksik interferentsiya* (Fomichenko L.G. Kognitivn{ы}e osnov{ы} prosodicheskoy interferentsii: Avtoreferat dissertatsii doktora filologicheskix nauk. M., 1998).

4. *Lingvomadaniy interferentsiya* (Fedorova N.P. Preodolenie lingvokulturnoy interferentsii v protsesse obucheniya inostrannomu yaz{ы}ku studentov neyaz{ы}kov{ы}x vuzov (na materiale angliyskogo yaz{ы}ka). Avtoreferat diss. Nijniy Novgorod – 2010.

5. *Madaniyatlararo interferentsiya* (J.Jalolov, 2016)

Har bir til materiali o’zini o’rgatish xususiyatlariga, metod, yo’l, usullariga, tanlash tamoyillariga, interferentsiyasiga egadir. Shularni hisobga olib, har bir til materialini o’rgatishni aloxida ko’rib chiqamiz.

## 1.2. Fonetik interferentsiya

Nutq faoliyatining til materiallaridan biri fonetikadir.

O’rta maktab, litseyda va kollej sharoitida fonetika alohida fan sifatida o’qitilmaydi. Nemischa talaffuz o’rgatiladi. Nemischa talaffuzni o’rgatish nutq faoliyatini o’rgatishda muhim o’rin tutadi. U nutq faoliyatini asosini tashkil qiladi, chunki tovushlardan tuzilgan til kishilik jamiyatining birdan-bir aloqa vositasi bo’lib kelgan va bo’lib qoladi.

Talaffuzni yaxshi egallash, nutq faoliyatlarini puxta egallahsga zamin bo’ladi. Talaffuz yoki fonetik material nutq faoliyatining materiali bo’lib xizmat qiladi. Nemischa tovush, tovush birikmalarni, so’zlarni, gaplarni talaffuz qilish, nemischa nutqni tinglab-tushinishga, gapishtishga, o’qib tushunishga, yozma nutqga ta’sir qilado’. Ularni qo’yidagilarda ko’rish mumkin: 1. *Spechen* yoki *reden* so’zlarida bitta tovush noto’g’ri talaffuz qilinsa, o’quvchilar noto’g’ri tushunadi, butunlay boshqacha ma’no kelib chiqadi. 2. *Bett* o’rniga *Beet* deb talaffuz qilinishi so’zlarning ma’nosini o’zgartiradi, o’quvchi tinglab, boshqa ma’no, mazmunni tushunadi. O’quvchi to’g’ri talaffuz qilishi uchun ypg’y, ritm, ohangni yaxshi bilishi keraq chunki ular mazmunga ta’sir qiladi. O’quvchi noto’g’ri talaffuzni

eshitsa o'zi ham noto'g'ri talaffuz qiladi, uning yozma nutqida ham salbiy ta'sir qiladi. Buning natijasida, o'quvchi tinglab tushunish jarayonida tovush, tovush birikmasini, so'zlar talaffuzini taniy olmaydi va diktantni xato yozadi. Noto'g'ri o'qish natijasida matn mazmunini noto'g'ri tushunadi, noto'g'ri mazmun kelib chiqadi. O'qituvchi bularni hisobga olishi zarur.

O'rta maktabda talaffuz qilish mazmunini, ya'ni talaffuz bo'yicha nimalarni o'rgatishni, uning talab istaklarini dastur belgilab ko'rsatadi. Talaffuz mazmuni bo'yicha o'quvchilar; 1) nemis tili unli, undosh tovushlarini va ularni talaffuz qilishni; 2) unlilarning uzun (cho'ziq,), talaffuz qilishni; 3) nemis tili tovushlarini o'zbek tili tovushlari bilan taqqoslashni; 4) nemis tili bo'g'in tizimining to'zilishini; 5) so'zlardagi urg'u, ohangni; 6) gaplarni ma'nodor guruxlarga (sintagmalarga) ajratishni; 7) unlilarning urg'u tushmaganda kuchsizlanishi (reduktsiya)ni o'rganadilar.

Hozirgi davrda o'rta maktabda talaffuzni o'rgatish, asosan, nutq faoliyati turlarining shakllantirishga, ustirishga, rivojlantirishga qaratilishi, yo'naltirilishi, bo'ysundirilishi vositasi sifatida foydalanishning asosiy shartlaridan biridir.

Talaffuz va ritm-ohang ko'nikma va malakalarni hosil qilish nutqning fonetik tomonini o'rgatishning asosiy maqsadidir. O'rta maktab dasturida talaffuz materiallari sinflar bo'yicha taqsimlab berilgan. Dastur talabi bo'yicha nemischa talaffuzni o'rgatishi aproksimatsiya tamoyiliga asoslanadi. Bu tamoyil: (1) o'rgatiladigan nemischa tovushlar va ohang modellarini chegaralashni; (2) mumkin qadar nemis zabon mamlakatlar vakillarining talaffuziga yaqinroq qilib o'quvchilarni nemischa talaffuz qilishga o'rgatishni o'z ichiga oladi. Nemischa talaffuz qilishni o'rgatishda adabiy til normalari asos qilib olinadi. Bunda to'liq va qisqa uslubdan foydalaniladi.

To'liq talaffuz uslubi Germanianing radio, maktab, universitetlar, teatr, kinolarida, matbuotda qo'llaniladigan talaffuz shaklidir. U hamma ritmik guruhlarni, tovushlarni ravshan talaffuz qilishni ko'zda tutadi.

Nemis tili fonetik tizimi hodisalarini ona tili fonetik tizimi bilan taqqoslangandan kelib chiqadigan xususiyatlarni hisobga olishimiz kerak. Bu xususiyatlar nemischa talaffuzni o'rgatishda ijobjiy va salbiy ta'sir qiladi.

Ijobiy ta'sir talaffuzni o'rgatishga yordam beradi, u o'quvchi, talaba ongli o'zlashtirishining manbaidir.

Salbiy ta'sir chalkashtiradi, interferentsiya keltirib chiqaradi. Bu xususiyatlarni bilib, salbiy ta'sirning oldini olish talab etiladi. Ularni o'rgatish uchun o'qituvchi mos keladigan metodlarni, usullarni, vositalarni tanlashi zarur. Hamma usul, yo'l, metod, vosita bir xil foyda bermasligi mumkin. Tanlangan metodalar o'quvchi va talabaning yoshiga, ta'lim bosqichiga, xususiyatiga qarab tanlanishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bois o'quvchilarga nemis tili fonetik tizimi haqida to'liq ma'lumotlar berib borish taqozo etiladi. Nemis tili fonetik tizimining o'ziga xos xususiyatlari qo'yidagilar: 1) xar bir unli xarflarning cho'ziq va qisqa talaffuz qilinishi; i [i:]; ye [e:]; 2) tovushning xarfidan ko'pligi: 26 ta xarfga 45 tovush to'g'ri keladi; 3) diftonglarning mavjudligi: [ai], [ei], [eu]; 4) nemis tili tovushlarining bo'g'izda talaffuz qilinishi; 5) 2 ta va undan ortiq xarflarning 1 ta tovush berishi: ch, sch, tsch, ph, th;

Nemis tili fonetik tizimini o'zbek tili fonetik tizimi bilan taqqoslaganda, xususiyatlar yanada yakqol namoyon bo'ladi. Ular mikdor, sifat, keskinlik jihatidan farq qiladi. 1. Mikdor jixatidan farqi: nemis tili unlilari qisqa, cho'ziq talaffuz qilinadi. O'zbek tilida esa bunday tovushlar kam uchraydi. Cho'ziq unli tovush nemis tilida ma'no o'zgartiradi. 2) Sifat jihatdan esa nemis tilida unli tovushlar monoftong, diftong bo'lishi mumkin. O'zbekchada esa bo'linmaydi. Masalan: monoftong [i], diftong [ei]; 3) Nemis tilida tovushlar o'zbek tilidan kuchli farq qilib talaffuz qilinishi ham til o'rganishga salbiy ta'sir qiladi. Masalan: [v] tovushi [w] (vor, verschiedene) almashib ketishi mumkin; [ts] birikmasi [z] (zusammen, der Zucker, zu) kabi talaffuz qilinishi mumkin; [s] tovushi [z] (der Sohn, sehen) yoki [ʃ] (spielen, sprechen) kabi talaffuz etilishi fonetik qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

O'zbekcha undosh tovushlarga qaraganda nemis undoshlari keskinligi, ba'zan yumshoq, ba'zan esa yumshoq talaffuz etilmasligi, almashuv xodisasi ro'y bermasligi bilan farq kiladi. Masalan: Album so'zidagi 1 harfi ruscha va o'zbekchaga nisbatan yumshoqroq talaffuz etiladi.

Nemis tili tovushlarini biz talaffuz qilganda: 1. Tovushning bir xil talaffuz etilib boshqacha ifodalanishi, yozilishi; 2. So'zda ba'zi harflarning umuman o'qilmasligini hisobga olish o'quvchilarning nutq jarayonida to'g'ri garpirishga o'rgatadi.

Bularni hisobga olmasaq o'quvchi, talaba ahamiyat bermasdan o'zbek tili fonetik tizimini talaffuz qilishning xususiyatlarini nemischa talaffuz qilishga ko'chiradi. Natijada fonetik interferentsiya kelib chikadi. Asosan fonetik interferentsiyaning manbai bo'lib: 1) o'zbek va nemis tili tovushlarini turli o'rinda talaffuz qilinishi; 2) ba'zi nemis tovushlarining o'zbek tilida yuqligi; 3) nemis tovushlarining cho'ziq va qisqaligi; 4) tovushlarning yanglish talaffuz qilinishi xisoblanadi.

Interferensiyaning ushbu turlarining ichida fonetik interferensiya alohida ahamiyatga egadir, chunki fonetika (fonologiya) tilning eng birinchi sathi bo'lib, ikkinchi tilni o'rganish huddi shu til bo'lagini o'zlashtirishdan boshlanadi. Mazkur lisoniy hodisani tadqiq etish ko'pchilik tilshunoslar tomonidan amalga oshirilgan. Ular tovush interferensiyasi fonetik yoki fonologik deb nomlashadi. Professor M. Djusupov esa u hodisani fonetik-fonologik interferensiya deb atashni taklif etadi [Джусупов, 1991, 149-б]. Shuning bilan bir qatorda, olim fonetik interferensiyaning ikki tomonlama jarayon ekanligini ta'kidlaydi, chunki interferensiya nutqni fonemalarning pozitsion turlarini qo'llashda amalga oshiriladi. Shu tufayli talaffuzda yuz beradigan xatolar ona tili bilan boshqa til tovush tizimlarining o'zaro ta'siri natijasida paydo bo'ladi.

Fonetik interferensiya qo'sh til sohibining ona tilidagi perceptiv( tinglash), ham artikulyatsion ( talaffuz qilish) alohidaliklariga tegishli bo'lib, xatolar ham tinglash (qabul qilish), ham hosil qilish (gapirish) paytida hosil bo'ladi. Boshqa tildagi nutqni perceptiv (tinglash) 42 idrok etish jarayoni ona tili tovushlarini qabul

etishga moslashgan. Shuning natijasida o'rganilayotgan boshqa til tovush tizimini idrok qilish malakasi noto'g'ri shakillanadi. Masalan, o'zbek o'quvchisi ona tilida [w] fonemasi mavjud emasligi tufayli, ingliz tilining ushbu fonemasini o'z nutqida noto'g'ri qabul qiladi va xatoga yo'l qo'yadi. Fonetik interferensiyaning yana bir sababi ona tili va o'rganilayotgan tillar tovushlar tizimidagi farqlargina emas, balki tovushlar guruhining birikishini yozuvda bir xil harflar bilan ifodalashi natijasi deb ham tushunsa bo'ladi. Ko'p paytlarda nutq xatolari ona tili va o'rganilayotgan tillarda bir xil xarflar bilan har xil tovushlarning yozuvda ifodalanishi sababidan kelib chiqadi. Masalan, (s) grafemasi ham o'zbek, ham ingliz yozuvida mavjud, ammo u o'zbek tilida faqat [s] tovushini (sen, to'siq kabi so'zlarda) bildirsa, ingliz tilida [s] va [z] tovushlarini (send/send/- jo'natmoq, song /sɒŋ/ -qo'shiq va cause/kɔ:z/ - sabab , advise /əd'veɪz/- masalahat so'zlarida buning guvohi bo'lishimiz mumkin) ifodalaydi, shu sababli o'zbek o'quvchisi inglizcha "send", "song", "cause", "advise" so'zlarini o'qishda talaffuz xatosiga yo'l qo'yadi [Любимова, 1985, с.55].

Bu xolat nemis tilida ham ushraydi.

Shunday qilib, interferensiya asosan to'rt jihat - *til meyori, ikki til sohibi xulq-atvori, ona tili bilan o'rganilayotgan tillararo munosabat va ijtimoiy sharoitlarning qatnashishida* hosil bo'ladi. Shu jihatlarga asoslangan holda, interferensiyaning quyidagi to'rt jihatli tipologiyasini yaratganlar: 1) til meyordan chetlashganiga ko'ra (lisoniy jihat); 2) bilingvning (qo'sh til sohibining) nutq faoliyati alohidaliklariga ko'ra (psixologik jihat); 3) ona tili bilan o'rganilayotgan tillar orasidagi munosabatlarga ko'ra (interlingvistik jihat); 4) ijtimoiy vaziyatga ko'ra (sotsio- va etnolivistik jihat) [ Карлинский, 1989, с.10]. 43 Interferensiyaga sof lisoniy yondashilganda malakani ko'chirib o'tish emas, balki uning natijasi, ya'ni yo'l qo'yilgan nutq holatlari nazarda tutiladi, shuning uchun lisoniy interferensiya o'quvchining ona tili va o'rganilayotgan til hodisalarini noto'g'ri tenglashi sababli bilingvning boshqa tildagi nutqidagi meyordan chetlashish vaziyatlari deb tushuniladi [ Карлинский, 1989, с.9-16].

Bu erda shuni xulosa qilish mumkinki, interferensiya bilingvning birlamchi (ona) tildagi nutq faoliyati bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini hali to'liq o'zlashtirilmagan ikkilamchi (boshqa) tildagi nutq faoliyatida qo'llashi bo'lib, shu shaxsning nutqida boshqa til meyorlaridan ona tili ta'sirida chetlashishidir; bu xolatda lisoniy ta'sir birlamchi (ona) tildan ikkinchi (boshqa) tilga yo'naltiriladi. Interferensiya til sohibining ixtiyoriga munosabati yo'q hodisadir. Uning miqdori shaxsning ikkinchi tilni egallashining o'sishiga to'g'ri keladi va til to'liq o'zlashtirilganda yo'qqa chiqadi. Interferensianing strukturaviy sababi ikki tilning har bir sathidagi tafavvutlarga bog'liq, nostrukturaviy sabablari esa tillararo tenglashtirishning psixologik qonuniyatlari bilan barobar. Tillar o'zaro munosabatlari natijasida kelib chiqadigan barcha hodisalardan (interferensiya, transferensiya, interkalyatsiya, transkalyatsiya) faqat interferensiyani oldindan aytish mumkin, ya'ni tilshunos ikki tilni qiyoslash orqali o'xshashlik va farqlarni aniqlashi natijasida interferensiya hodisasini mo'ljallay oladi. Boshqa hodisalarni esa oldindan bilish mumkin emas, chunki ularning hosil bo'lishi juda ko'p ekstralivingistik jihatlarning ta'siriga bog'liq. [ Карлинский, 1989, с.42] Interferensiyani o'rganish to'rt bosqichda amalga oshadi. Birinchi bosqichda u ona tili va boshqa til tizimlari paradigmatic va sintagmatik hamda transformatsion tomonlardan aniq til nazariyasiga asoslangan holda ta'riflanadi.

O'rganishning ikkinchi bosqichida ona tili va ikkinchi til tizimlarini qiyosiy-tipologik (o'xshashlik va tafavvutlarni aniqlash) ta'riflash orqali kutilayotgan interferensiya maydoni aniqlanadi. Interferensianing hosil bo'lish vaziyatlari mo'ljallanib, ular tasniflanadi va o'rganishning uchinchi bosqichida hal etiladi. To'rtinchi bosqichda erishilgan ma'lumotlar eksperimental tekshirishdan o'tkaziladi va axborotchi bilingvlarga ko'rsatiluvchi ekstralivingistik ta'sirlar hisobga olinadi hamda materiallarga statistik takrorlanuvchanlik, o'zgarmaslik jihatlardan ishlov beriladi. Shunday qilib, bilingvning boshqa tilda muloqat yuritishi jarayonida

yuzaga kelgan interferensiya bo'yicha olingen muayyan ma'lumotlar o'rganishning to'rtinchi bosqichida to'liq tahlil qilinadi[ .

### **1.3. Grammatik interferentsiya**

Grammatikaning metodik tipologiyasini yaratish metodikaning muhim masalasi hisoblanadi. Shuni ta'kidlash kerakki, o'rganilayotgan chet tilidagi grammatik shakl va konstruktsiyalar orasidagi tafovutlar til grammatika tizimi ichidagi interferentsiyani keltirib chiqaradi. Chet tili va ona tili grammatika tizimi o'rta sidagi tafovutlardan tillararo interferentsiya vujudga keladi. Har ikkala interferentsiya hodisalarini hisobga olish va ularni bartaraf qilish yo'llarini to'g'ri tanlash chet til o'qituvchining diqqat markazida bo'lishi kerak.

Ma'lumki, nemis tilida kishilik olmoshlari ikkita, ya'ni bosh va ob'ekt kelishiklariga ega. O'zbek tilidagi kelishik kategoriyasi 6 ta kelishik ya'ni bosh kelishik, qaratqich kelishigi, tushum kelishigi, jo'nalish kelishigi, o'rin-payt kelishigi va chiqish kelishigidan iborat. Nemis tilidagi kishilik olmoshlarining bosh kelishigi o'zbek tilidagi bosh kelishikka, nemis tilidagi ob'ekt kelishigi o'zbek tilidagi tushum va jo'nalish kelishigiga mos keladi. O'zbek tilidagi qolgan kelishiklar esa nemis tilida predloglar yordamida ifodalanadi.

O'zbek o'quvchilari nemis tilidagi majhul nisbat shakli (Passiv) bilan tanishganlarida nemis tilidagi olmoshlarning to'g'ri kelishik shakllarini tanlashda qiyinchiliklarga duch keladilar:

*Ihr wurde eine neue Arbeit angeboten.* – Unga yangi ish taklif qilindi.

Ko'rinib turganidek o'zbek tilining tushum va jo'nalish kelishiklariga nemis tili ob'ekt kelishigi mos keladi, bu esa bosh kelishik o'rniga ob'ekt kelishigi qo'llanilishi orqali namoyon bo'luvchi tillararo interferentsiyani yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

O'zbek tilidagi uchinchi shaxs ko'plik olmoshi ular uchinchi shaxs birlik songa nisbatan qo'llanilganda, «hurmat» ma'nosini bildiradi. Nemis tilida esa uchinchi shaxs ko'plik shakli sie ko'plik noaniqlik va umumiylilikni anglatadi.

Biroq Sie olmoshi «hurmat» ma'nosida qo'llanilishi kuzatilaydi. Mazkur hodisa nemis tilida kishilik olmoshining uchinchi shaxs birlik shakllari er, sie o'rniga sie uchinchi shaxs ko'plik shaklining ishlatalishi natijasida yuzaga keladigan madaniyatlararo interferentsiyani namoyon etadi. Masalan: Oying qani? – Ular hozir keladilar. Wo ist deine Mutter? – Sie kommt o'rniga -Sie kommen tarzida qo'llab bo'lmaydi.

Ma'lumki, o'zbek tilida egalik olmoshlari mavjud emas, biroq nemis tilidagi egalik olmoshlariga o'zbek tilida qaratqich kelishikdagi kishilik olmoshlari mos keladi. O'zbek tilida otlardagi egalik ma'nosining qo'shimchalar yordamida ifodalanishi nemischa nutqda egalik olmoshlarini tushirib qoldirishga sabab bo'luvchi tillararo interferentsiyaning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Buni Er öffnete die Augen o'rniga Er öffnete seine Augen ko'rinishida nemis tiliga egalik olmoshlarini tana a'zolari nomlari bilan qo'llash xos, o'zbek tilida esa egalik ma'nosi egalik qo'shimchalari orqali ifodalanadi, shu bois qaratqich kelishigidagi kishilik olmoshini qo'llash ortiqcha bo'lib qoladi.

Ko'rsatish olmoshlari nemis tilida ham, o'zbek tilida ham shaxs va predmetning so'zlovchiga nisbatan makon yoki zamon jihatidan uzoq-yaqinligiga ishora qiladi. Substantiv so'z birikmalarida o'rin yoki shaxsga nisbatan qo'llanuvchi o'zbek tilidagi ko'rsatish olmoshlari –lar ko'plik qo'shimchasini olib, «ko'plik» yoki «hurmat» ma'nosida ishlataladi.

Nemis tilidagi einige, solche, irgendjemand, jemand, etwas, irgendetwas kabi gumon olmoshlarga o'zbek tilidagi ba'zi bir, bir qancha, bir nima, bir necha, bir narsa, kimdir, nimadir, allakim, allanima, birov singari olmoshlar to'g'ri keladi. Nemis tilidagi gumon olmoshlarini o'rganishda einige kabi so'zlarni tushirib qoldirish natijasida tillararo interferentsiya hamda jemand so'zlarini qo'llash natijasida ichki lisoniy interferentsiya yuzaga kelishi mumkin.

Biz tarjima orqali nemis va germaniyalik shoir, yozuvchi, atoqli olimlarning hayoti, turmush tarzi, ilmiy ishlari, she'rlari, ertaklari, hikoyalari, romanlari hamda nemis tilida gaplashadigan mamlakatlar xalqlari hayoti, madaniyatları, urchodatlari bilan tanishamiz, tanishtiramiz. Bu esa dunyoqarashni kengaytiradi, tarbiyaga

ijobiy ta'sir qiladi. Odatda tarjima og'zaki va yozma shakllarda bo'ladi. Tarjimaning: (1) sinxron tarjima; (2) diaxron tarjima; (3) adekvat tarjima; (4) erkin tarjima; (5) so'zma-so'z tarjima; (6) adabiy tarjima turlari mavjud.

Sinxron tarjimada nutq, matnni tinglash paytda so'zlovchi bilan bir vaqtida tarjima qilish, diaxron tarjimada esa tinglangan, o'qilgan nutqni tarjima qilish tushuniladi. So'zma-so'z tarjimada matnni, nutqni, aynan so'zlarning o'rnini, ma'nosini o'zgartirmay tarjima qilinadi. Masalan: Er hat ein Buch. Unda kitob bor. Adabiy tarjima asosan adabiy asarlarni, she'r, hikoya, romanlarni tarjima qilishda qo'llanadi, u ancha murakkabdir. Odatda nemis tilidan o'zbek tiliga, o'zbek tilidan nemis tiliga tarjima qilinadi. Hozirgi paytda nemis tilini o'rgatishda tarjimadan umum o'rta ta'lif maktablarda, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarida, oliy o'quv yurtlarda foydalaniladi. Bu o'quv yurtlarida nemis tilini o'rgatishdan maqsad, vazifalar hisobga olinib, tarjima shakllari, turlari tanlanib undan foydalaniladi, unga urgatiladi, tarjimon tayyorlashda tarjimadan keng foydalaniladi.

Hozirda nemis tilini o'qitish metodikasida bir qator olimlar tarjimadan zaruriyat, ehtiyoj tug'ilgandagina foydalanish, qo'llash metodik jihatdan to'g'ri deb xisoblaydilar. Boshqa bir guruh olimlar esa nemis tilini o'rgatishda tarjima mashqlarini qo'llashdan oldin, tarjimaning foydali tomonlarini, shu jarayonga zarurligini va o'rnini oldindan bilib, so'ngra uni darslarga tadbiq etish, qo'llash ma'qul ekanligini aytib o'tadilar.

Tarjimadan noo'r in, tez-tez foydalanish, nemis tilini o'rgatishga zararli ta'sir qiladi. Tarjimani qo'llash, nemis tilini o'rgatishga ijobiy va salbiy ta'sir qilishi mumkin. Tarjima ijobiy foyda berganda undan foydalanish, salbiy ta'sir qilsa, uni oldini olish kerak. Chunki interferentsiya keltirib chiqaradi. O'qituvchi darsdan oldin tarjimani ijobiy, salbiy ta'sirini aniqlab, uni qo'llashga tayyorlanadi. Tarjimani ishlatish, undan foydalanish o'mini o'qituvchi tomonidan oldindan aniqlay olish, salbiy ijobiy ta'sirini to'g'ri belgilay olish, uning tajribaliligini, mahoratini belgilaydi yoki kursatadi. Tarjimani salbiy yoki ijobiy ta'sirini belgilashga qo'yidagi faktorlar ta'sir qiladi:

1. Tillarning bir guruxda, oilada bo'lishi yoki bo'lmasligi.
2. O'quvchi, talabaning ona tilisining xususiyati.
3. Nemis tilining xususiyati.
4. Tarjimani ishlatish o'rni.
5. Til materiallarining turi va xususiyati.
6. Nutq faoliyatining turi, xususiyati.
7. Nemis tilini o'qitishning maqsadi va mazmuni.
8. Til o'rganuvchining bilimi.
9. Til o'rganish, o'rgatish, tarjima qilish vaziyati va sharoiti.

Nemis tilini o'rgatishda tarjimadan foydalanish uni qo'llash qo'yidagi holatlarda ijobiy ta'sir qiladi:

1. Nemis tili leksikasi ma'nosini ochishda. Bunda leksikaniga bitta tarjima ekvalenti bo'lsa ishlatiladi. Agarda leksikaning ma'nosi bir tilda kengrok; yoki torroq bulsa, garjimaga izox beriladi. Masalan: *Nachmittag* soat 12 dan 18 gacha bo'lgan davr.
2. Nemis tili grammatik materialini ma'nosini bilishda, tushuntirishda: Masalan: *laenger* — uzunroq, *am laengste* — eng uzun. *Er arbeitet jetzt* - u xozir ishlayapti.
3. Nemis tilida tinglab tushunishni o'rgatishda, ma'lumot olganlikni, tushunganlikni tekshirishda;
4. Matnni o'qib tushunganlikni tekshirishda;
5. O'zganing nutqni tinglab, tarjima qilishni o'rgatishda;
6. Matndagi ba'zi gaplarni, konstruktsiyalarni, qoida bo'yicha tuzilmagan jumlalarni, tushunish qiyin bo'lgan abzatslarni o'rganishda;
7. O'zbek tiliga nemis tiliga yoki nemis tilidan o'zbek tiliga tarjima qilishni o'rgatishda;

Nemis tilini o'rgatishda tarjimadan foydalanish va uni qo'llash qo'yidagi holatlarda salbiy ta'sir qiladi:

1. Nemischa so'zning tarjimasini ona tilidagi so'zning ma'nosiga to'liq mos kelmasa tarjimani kullash. Masalan: somsa, chopon, obi non, do'ppi singari

so'zlarni tarjima qilish. Oldingi nemis tili maktab darsliklarida bu so'zlar shunday tarjima qilingan. Bunday tarjimalarni bersak o'quvchilar, talabalar nemislar ham tandirda somsa yoparkan, chopon, duppi kiyarkan deb tushunishadi. Bu yerda tarjimaga izoh talab qilinadi.

2. So'zning ma'nosini tarjimasiz ochish sharoiti, vositasi bula turib, tarjimadan foydalanish. Masalan: der Kugelschreiber — ruchka. Vaxolnki, har bir o'quvchida bor, uni ko'rsatib ma'nosini tarjimasiz ochish mumkin.

3. Darsda o'qituvchi o'z nutqida ona tilini tez-tez ishlatishi.

4. O'quvchilar, talabalarning darsda 2 ta tilda muloqot, aloqa qilishi. O'quvchi, talabalarning nemis, o'zbek tillarini, ularni nemis tili muhitidan, oqimidan chiqarib, nemis tilini uzlusiz o'rghanishga xalaqit beradi. Nemis tilida fikrlashni sekinlashtiradi.

5. Tarjimani qo'llash zaruriyati bo'lmasa ham uni ishlatish.

6. Matnni o'qib so'zma-so'z tarjima qilish.

Matnni tarjima kildirishda juda ehtiyyot bo'lish zarur. Matnni so'zma-so'z tarjima qilishning nemis tilini o'rghanishga salbiy ta'siri kuchlidir. Bunda o'quvchi yoki talaba matndagi nemischa gapni ukib, tarjima qilishi kuzda tutiladi. So'zma-so'z tarjima qilish, o'quvchi yoki talabani nemischa gapni ukib keyin tarjima qilishi, ularni nemis tili muhitidan chikib, ona tili muhitiga utishi va shunday kaytarilaverilishi nemis tilini o'rghanishga foyda bermaydi. O'quvchi, talabani bir muhitdan ikkinchi muhitga tez-tez utib turishi, ularni bir tilda gapirishini, o'qishini, nemis tilida fikrlashini, talaffuz qilishini kiyinlashtiradi. Til okimidan tez-tez chikish til o'rghanishda zararlidir. Matnni hammasini ukitib so'ng ukitmasdan tarjima kdodirish maksadga muvofikdir, shundagina u foyda berishi mumkin.

O'qituvchi tarjima qilishni o'rgatishda tarjima kilib, tarjimaning nozik tomonlarini, xususiyatlarini nemis tili gapidagi so'zlarning tartibini va ularni o'zbek tiliga tarjima kilganda o'zbekcha gaplardagi so'zlarning joylashishi tartibini yoki o'zbek tilidan nemis tiliga tarjima qilish qoidasini misollar orqali kursatishi, tushuntirishi kerak. Masalan:

1. Der Kugelschreiber steht auf dem Tisch konstruktsiyalarini tarjima qilishda gapni oxiridan boshlash, yoki o'zbek tilidan «Stolni ustida ruchka bor» (turibdi) kabi gaplarni nemis tiliga tarjima qilishda o'rinni xoli «stolni ustida» nemis tilida gapni oxirida turishi lozimligi.

2. *Mein Vater arbeitet in der Fabrik. Salima beginnt ihre Arbeit um 8 Uhr* kabi gaplarni o'zbek tiliga tarjima qilishda, o'rinni xoli in der Fabrik payt xoli um 8 Uhr ega bilan kesim o'rtasida turishini qo'yidagicha tarjima qilib ko'rsatish kerak: Mening otam fabrikada ishlaydi. Salima soat 8 da ishini boshlaydi.

3. Nemis tilida umumiyoq so'roq gaplar ist, macht, antwortet kabi kesimlar orqali boshlanishi o'zbek tiliga tarjimada — mi kushimchasi orqali ifodalanishini o'rgatish qo'yidagicha misollar orqali tushuntirilishi mumkin. Ist das ein Kugelschreiber? Bu ruchkami? Sprechen Sie Deutsch? Siz nemischa gaplashasizmi?

4. Shaxssiz gaplarni Es ist Winter. Qish. Es ist Sommer. Yoz deb tarjima qilinishi. Bunday xususiyatlarni, misollarni ko'p keltirish mumkin. Bu ikkala tilda uchraydigan xususiyat, qiyinchiliklarni o'qituvchi tarjima qilishdan oldin o'quvchi, talabalarga tushuntirishi zarur, aks xolda ular xato tarjima qiladilar yoki ularga tarjima qilishni o'rgatish qiyin bo'ladi.

Yuqoridagilarni xisobga olib biz tarjimani o'rgatish metodikasini qo'yidagi mantiliy metodik ketmekteklidagi tashkil kdtishni taklif qilamiz:

1. Tarjima qilinadigan matndagi gap, jumlalarni o'qib, tanishib, notanish so'z, grammatika materialini, qiyin konstruktsiyani topish, ularni tarjima qilish (lug'at orqali, o'qituvchi yordamida).

2. Gap, jumlalarni so'roq, inkor, darak gapligini aniq o'tash.

3. Gapning ega-kesimini aniqlash.

4. Gapning zamonini aniqlash.

5. So'roq yoki inkor gaplar o'zbek tilidan, nemis tiliga tarjima qilinganda yordamchi fe'llarni aniqlash.

6. So'ng gap, jumlan tarjima qilish.

O'quvchi talabalar gap, jumlanı tarjima qilayotganlarida so'z tartibini ona tili yoki nemis tili so'z tartibidagidek tarjima qiladilar. So'ng tarjima qilinayotgan tildagi so'z tartibiga qo'yishga yoki ochiqdan ochiq o'z ona tilisi so'z tartibidek tarjima qiladilar, bu esa juda katta xatodir. Uni oldini olish zarur, o'ylab, fikrlab tarjima qilinayotgan tildagi so'z tartibi bo'yicha tarjima qilishga o'rgatish lozim. O'rganilayotgan grammatik material/mavzu turli xil mashqlar bajarish orqali mustahkamlanadi. Birinchi kursning dastlabki mashg'ulotlarida grammatikani o'rgatish, maktabda o'rganilgan materialni sistemalashtirish (tartibga solish) asosida amalga oshiriladi. Ko'pgina grammatik ko'nikmalar maktab, litsey yoki kollej o'quvchilarida yetarlicha shakllanma-ganligi sababli, ulardagi qiyinchiliklarni aniqlash zarurati tug'iladi. Buning uchun o'qituvchi dars davomida o'quvchilardagi til qiyinchiliklarini o'z vaqtida aniqlab, shunga qarab yondashsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'rta maktabda qiyin grammatik hodisalarga o'tgan zamon (Perfekt, Plusquamperfekt)ning yasalishi, mustaqil fe'lning qaysi yordamchi fe'l bilan ishlatilishi, o'rta maktabdan keyingi ta'lim muassasalarida esa shart mayli (Konditionalis I, II), aniq nisbatda kelasi zamon (Futur II Aktiv) va h.k. kiradi. O'quvchi yoki talabaning ona tilisi bunga salbiy ta'sir ko'rsatadi, ya'ni interferentsiya hodisasi ro'y beradi. Qiyinchilik alohida maxsus mashqlar bajarish, kuch va vaqt sarflash orqali bartaraf etiladi. Ona tili va chet tilda farq qiladigan lisoniy hodisalar mavjudligi oqibatida qiyinchilik kelib chiqadi, o'quvchilar xatoga yo'l qo'yadilar. Masalan, o'quvchilar olmon tilida o'tgan zamonni qo'llashda yordamchi fe'lni yoki sifatdoshni tushirib qoldiradilar. Olmon tilidagi Perfekt yoki Plusquamperfektni o'rganish chog'ida asosiy fe'lning yordamchi fe'l bilan ishlatilishi, yoki Partizip IIning yasalishi o'quvchi va talabaga jiddiy grammatik qiyinchilik tug'diradi. Tegishli mashqlar bajarish orqali qiyinchiliklar bartaraf etiladi va olmon tiliga xos bo'lgan ko'nikmalarni shakllantirishga erishiladi. Grammatikani o'rgatish mazmuni o'quv dasturida tavsiya etiladi. U o'rta metodik mezonga ko'ra (o'quvchining ona tili va ikkinchi tildan to'plangan grammatik tajribasi, chet tildan yig'iladigan tajriba va ularning grammatik hodisalari nazarga

olinib) tanlanadi. O'quvchilar birinchi bosqichda o'zlashtirgan til materiallari asosida o'z bilimlarini ikkinchi bosqichda yanada oshiradilar. Aktiv grammatik minimumga barcha nutq faoliyati turlarida qo'llaniladigan hodisalar kiradi. Grammatikani o'rgatish leksika va talaffuz bilan uzviy aloqadorlikda olib boriladi.

O'qituvchi, metodistlar jiddiy yondashib bu modelni metodik jihatdan: chuqurlashtirishlari, yangisini o'ylab, izlab topishlari, yaratishlari mumkin. Biz tarjimani nutq faoliyati sifatida o'rgatishda yuqorida aytilgan fikr, muloxdzalarni xisobga olib, metodikani samarali qo'llasak nemis tilini o'rgatish to'g'ri yo'lida bo'ladi degan fikrdamiz.

#### **1.4. Leksik interferentsiya**

O'quvchi, talabaning ona tili tajribasi nemis tili leksikasini o'rganayotganda qo'yidagi xolatlarda ijobiy ta'sir kiladi: A) o'quvchi, talaba so'zni kullab fikr bayon qilayotganda ba'zi gap to'zilishini xuddi ona tilidagidek tuzadi, chunki nemischa gapdagi so'zlar urni o'zbek tiliga tutri keladi. Masalan: Bu kitob — Das ist ein Buch. B) so'z qo'shimchasi qo'shib, yangi so'z yasalishi to'g'ri keladi: Die Arbeit — der Arbeiter ish — ishchi. B) 2 ta so'z qo'shish orqali yangi so'z yasalishi: — sinf xonasi — das Klassenzimmer.

O'quvchi, talabaning ona tilisi qo'yidagi xolatlarda salbiy ta'sir qilishi mumkin: (a) kushimchasiz, konversiya orqili so'z yasaganda. Masalan: die Auge — sehen ko'z — ko'rmoq. O'zbek tilida bo'limgan bu konversiya intefrentsiyani keltirib chiqaradi; (b) o'quvchi, talaba so'zni qo'llab o'z fikrini bayon qilishda xuddi ona tilidek tuzadi, vaholanki, umuman olganda o'zbek tilida gap to'zilishi nemis tiliga to'g'ri kelmaydi. Masalan: «Mening akam maktabda ishlaydi» gapini Mein Bruder in der Schule arbeitet qo'llashi kuzatiladi. Bunda gapni o'zbek tili tajribasi ta'sirida nemischa gapda so'zlarni o'zbek tili gapidagi tartibidek joylashtiradilar; (v) o'quvchi, talabalar nemischa matnni o'qiyotganlarida ham konversiya leksik interferentsiya keltirib chiqaradi. Masalan: Seine Arbeit ist sehr interessant. Er arbeitet sehr gut. Ikkala gapda ham arbeit so'zini ish deb tushunadilar;

(g) so'zlarda harflarning o'qilmasligi; (d) so'zning matnda ko'p ma'noda kelishi: arbeiten, die Arbeit, der Arbeiter ham interferentsiya keltirib chikdradi; (e) o'zbek tili ta'sirida qo'yidagilar interferentsiya keltirib chiqaradi; ma'nolarning bir-biriga to'g'ri kelmasligi: der Mantel — chopon. O'zbek tilidagi so'zni nemis tilida ko'p so'z orqali ifodalanishi: ko'rmok — sehen, schauen. Bitta ma'noni ikkita so'z bilan nemis tilida ifodalanishi: qo'l — Arm, Hand.

O'quvchi, talaba o'rta maktabda birinchi sinfdan boshlab rus tilini o'rganadi. O'quvchi 5-6-sinflarga borib, nemis tili leksikasini o'rganayotganda ham bu til tajribasi ta'sir qiladi. Ta'sir ham ijobiy, ham salbiy bo'ladi.

Tillar ta'sirini, tajribasini, ayniqsa, baynalminal so'zlarni talaffuz qilishda, ma'nosini ilgaridan bilishi, fikrni og'zaki va yozma bayon qilishda gapda so'z tartibining nemis va o'zbek tillarida to'g'ri kelmay, ruschada to'g'ri kelishi mumkin. Masalan: a) futbol, tennis; b) Mein Vater arbeitet im Werk. Mening otam zavodda ishlaydi. Moy otets rabotaet na zavode. Bu yerda rus, o'zbek tillari tajribasi ijobiy ta'sirdan tashqari salbiy ta'sir ham mavjud.

O'quvchi 7-8-9-sinflarda va akademik litseylarning kurslarida nemis tili leksikasini o'rganayotganda 5-6-sinflardagi nemis tilidan bo'lgan malaka, ko'nikmasi, tajribasi ham ijobiy, ham salbiy ta'sir qiladi. Ijobiy ta'sirga notanish nemischa so'zlarni oldingi o'rgangan qoida, tajriba bo'yicha o'qish, yozish, uz fikrini yozma-og'zaki bayon qilishlar misol bo'la oladi. Ba'zi so'zlarda xarflarni oldingi tajriba bo'yicha o'qish salbiy ta'sir kiladi. Masalan: gehen so'zida h o'qilmaydi. Biroq o'quvchilar uni shunday o'qiydi.

Hozirgi paytda mana bu tajribalarni — tillarning xususiyatlarini hisobga olishni metodika talab qiladi. Bu til tajribalarini hisobga olmaslik nemis tili leksikasini o'rgatishda, o'qitishda ular o'quvchi, talabalarga xalakit beradi, chalkashtiradi, ularga mustahkam bilim berilmaydi, o'zlashtirishga zararli ta'sir qiladi. Ularni hisobga olish o'qituvchidan mas'uliyat talab qiladi.

Nemis tili darsliklarida mumkin qadar mualliflar bu tajribalarni hisobga olishga, ularni bartaraf etishga xarakat qilishgan.

O'qituvchilar o'zlari ham buni hisobga olib leksikani o'rgatishlari, kelib chiqadigan leksik interferentsiyani topishlari, oldini olish yo'llarini izlashlari, o'quvchilarga oldindan, aytib qo'yishlari lozim.

Leksik interferentsiyalarni bartaraf etish uchun ko'proq leksik birliklarni qo'llab gapirish, tinglab tushunish, o'qish va yozuvda mashq qilish tavsiya etilgan. Birinchi darsda o'tilganlarni takrorlagan holda yangi nutq mavzulari taqdim etilgan. Demaq mashqlarda, til materiali taqdimotida izchillik mavjud. Chet til o'qitishda nutq mavzulari, ko'nikma va malakalar, til materiali orasida izchillik bo'lishi shart. Bu asosan o'qitish mazmunini tanlashda, tasnifi, taqsimoti va taqdimotida kuzatiladi. Bunga misol qilib bir darsning o'zidagi izchillikni olishimiz mumkin. Masalan, VI sinf olmon tili darsligining 77- betida berilgan 11-dars "Mein Traumberuf" nutq mavzusiga weil-Sätze (Sabab ergash gapli qo'shma gap) bog'langan. Mazkur darsdagi mashqlar izchilligini ko'rib chiqamiz.

1. Ratet mal, wer das ist. (Avvalgi mashqdan foydalanib rasm asosida, berilgan yangi leksik birlikka bog'langan tarzda, qaysi kasb egasi ekanligini toping).
2. "Ich hab' ein Problem". Hört die Dialoge. (Dialogni tinglash mashqi).
3. Macht jetzt bitte zu zweit ähnliche Dialoge. (Berilgan so'zlardan foydalanib juftnutq tuzing).
4. Lest die Texte. Was wollen die Kinder werden? Mein Traumberuf. (Matnlarni o'qing. Bolalar kim bo'lmoqchi ekanligini ayting. Men orzu qilgan kasb). (5-7) Tushunganlikni tekshirish mashqlari (og'zaki va yozma) bajariladi.
  - Yakkutq va juftnutqda ushbu matn va avvalgi materiallardan foydalanib gapirish mashq qilinadi.
  - Matndan foydalanib, "Bolalar nima uchun bu kasblarni orzu qilmoqda?" savoliga matn asosida yangi grammatik materialni qo'llab javob qaytarish. Masalan, Kathrin möchte Tierärztin werden, weil sie kgapken Tieren helfen will.
  - Zu welchen Texten passen folgende Schlagzeilen?
6. Navbatdagi grammatik mashqda gaplarni davom ettirish lozim.
7. Keyingi mashq ham izchillikda taqdim etilgan, ya'ni kasblarga mos qilinadigan ishlarni tanlash va topish.

8. Yangi grammatik material mashq qilinadi. Was wollt ihr mal werden? Warum? (Kim bo'lmoqchisiz? Nima uchun?) Nutqiy grammatik avtomatizm shakllana boradi. Grammatik mashqlar bajarishda ham izchillikka alohida e'tibor berish zarur bo'ladi.

9. Berlin maktabining VI sinf xonasida kasblar ro'yxati qanday ko'rinishda?

10. Sizning sinfingizda qanday kasblar ro'yxati osilgan?

11. Mazkur mavzuga mos qo'shiqni tinglab tushunish va kuylash berilgan. Ushbu mashqlardan ko'rini turibdiki, taqdimot bosqichi tashkiliy jihatdan uchta izchil metodik tadbirni qamraydi: tanishtirish (prezentatsiya), idrok etib tushunganlikni nazorat qilish va yangi hodisani tanib olish hamda aytishga oid dastlabki mashqlarni bajarish.

Yangi materialni tanishtirishda muallim o'quvchilarni taqlid qilishga undaydi. Keyingi bosqichlarda mazkur material grafik timsolga asoslanib taqdim etiladi. Tanishishning ikkinchi qismida taqdim etilgan hodisani o'quvchilar tushunganliklari nutq jarayonida muallim tarafidan nazorat qilib boriladi. Tushunganlik darajasini tekshirib borish va mashqlar bajarish bilan keyingi bosqichga o'tishning muvaffaqiyati uchun zamin tayyorlanadi. Uchinchi bosqichda dastlabki mashqlarning izchil bajarilishi yangi hodisani mustahkamlash garovidir [31:160].

Endi o'quvchida til tajribasining salbiy ko'chishi (interferentsiya) hodisasi yuz beradi. Buni bartaraf etish uchun turli mashqlar izchillikda, bir- biriga asoslangan holda bajariladi. Matn mazmunini tushunganlikni tekshirish mashqlari orqali yangi leksik va grammatik hodisaning shakli, ma'nosi o'zlashtirib olinadi. O'quvchilarga qoida-umumlashma beriladi. So'ngra o'zlashtirilgan leksik va grammatik birlik nutqda qo'llanila boshlanadi. Matndan nisbiy gap (Relativsatz)ni toping, nutq mavzusi "Landschaft"ni tasvirlashda nisbiy olmosh ishtirot etgan gaplardan foydalaning, matnni tinglang va savolga javob qaytaring, hikoya qiling

## **1.5. Madaniyatlararo interferentsiya.**

Madanyatlararo muloqot fani haqida olimning fikrlari quyidagicha. U lingvomadaniyatshunoslik fani bilan bevosita bog'liq.

Tilda insonning o'zi ham, uning hayot tarzi, xatti-harakatlari, boshqalar bilan munosabatlari, qadriyatlari va madaniyati ham aks etadi. Inson odamlar ichiga kirar ekan, uning tili ishga tushadi, ya'ni u muloqotga kirishadi. Ko'psonli misollar shuni ko'rsatadiki, madaniyatlararo muloqotning muvaffaqiyatli o'tishi uchun faqat tilni va uning ishlatalishini bilish yetarli emas ekan.

Madaniyatlararo muloqotdagi muvaffaqiyatsizlikning sabablaridan biri kommunikantlardan birining o'sha xalqning madaniyati haqida kam bilishi yoki umuman bilmasligidir. Demak, muloqotning muvaffaqiyatli kechishi kommunikantlarning so'zlashilayotgan til sohiblarining madaniyatini bilishiga bog'liq.

Madaniyatlararo muloqot fanini quyidagilar qiziqtiradi:

- 1) til va madaniyat munosabati,
- 2) madaniyatning tilda aks etishi,
- 3) Talabalarga lingvokulturemalar va kululturemalar haqida axborotlar berish.
- 4) madaniyatlararo interferentsiyalar, shu jumladan madaniyatlararo konflikt zonalarini aniqlash,
- 5) madaniyatlararo interferentsiyalarni va konfliktlarni bartaraf qilish yo'llarini ko'rsatish.

Kulturema lingvokulturemadan farqli o'laroq madaniyatning til bilan bevosita bog'liq bo'lмаган elementlariga (xatti-harakat, ekstralengivistik vositalar va hokazolarga) nisbatan qo'llaniladi. Madaniyatlararo muloqot fani umumiy va xususiy (konkret ikki madaniyat muloqoti) bo'lishi mumkin. Birinchisiga Ter-Minasova S.G.(2000), Gudkov D.B. (2003), Grushevitskaya i dr. (2003) asarlari, ikkinchisiga yurtimiz olimasi G.Maxkamovaning (2011) asari misol bo'lishi mumkin.

O'.Q.Yusupov fikricha, lingvomadaniyatshunoslik va madaniyatlararo muloqot fanlari kelajagi porloq, umriboqiy va chet til o'qitishni yaxshilashga hizmat qiluvchi fanlardir. U universitetimiz talabalariga, ilmiy tadqiqotchilariga, doktorantlariga bu sohada ilmiy ishlar olib borishni tavsiya qiladi

Interferentsiya aslida fizika fani atamasi hisoblanadi. U ikki to'lqin (suv, havo, elektromagnit, yorug'lik to'lqinlari) tebranish ko'rsatkichlari qarama-qarshi bo'lsa, ma'lum sharoitda bir-birini to'liq yoki qisman so'ndirishini bildiradi. Interferentsiya faqatgina tabiat hodisalariga emas, shuningdek, o'ziga xos tarzda jamiyat hayotiga ham xos.

U lingvistikada anchadan buyon ishlatiladi. Ikki tillilik (bilingvizm) hodisalarida so'zlovchi asosiy tilining ayrim grammatik va lug'aviy xususiyatlari u ikkinchi tildan foydalanayotganda talaffuzida, gapidagi so'zlar tartibida, zarur so'zning aniq ekvivalentini topa olmay birinchi tilining elementlarini qo'llashida namoyon bo'ladi. Ushbu holatni lingvistlar interferentsiya deb atashni ma'qul topganlar. Ikki tilli insonlar ko'p. Ammo odatda ularning juda ozchiligi har ikki tilni baravar va yaxshi o'zlashtiradi. Ko'pchilik ikkinchi tilni kundalik muloqot darajasida biladi.

Shu sabab ularning nutqida turli darajada qisman namoyon bo'ladigan interferentsiya ko'p uchraydi. Aynan shunga o'xhash hodisa boshqa madaniy muhitga tushib qolgan kishilar xulq-atvorida, ularning yangi ijtimoiy vogelikka munosabatida kuzatiladi. Ushbuning yorqin misoli – muhojirlar hayoti. Bunda qishloq, provintsial, ko'proq dehqoncha madaniyat va shahar madaniyati o'rtaida, agar muhojir chet ellik bo'lsa, ikki milliy madaniyat o'rtaida o'ziga xos interferentsiya yuz beradi.

O'tmishda qishloqdan shaharga yoki bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga ko'chib kelib, yangicha sharoitda ishlashga va yashashga majbur bo'lган kishi o'z ongi va turmush tarzida avvalgi madaniy vogelik unsurlarini ancha saqlab qolgan, yangi vogelikning hamma unsurlarini birdek baravar qabul qilolmagani uchun uning hayotida o'ziga xos mafkuraviy-madaniy bo'shliq (vakuum) paydo bo'lган. Bo'shliq aynan madaniyatlar interferentsiyasi tufayli yuzaga keladi.

Shunday qilib, interferentsiya bir madaniyatlar doirasida yuksak va ommaviy madaniyatlar, xalq madaniyati (folklor) va ommaviy madaniyat o'rtasida hamda xalqaro miqyosda va yerli xalqlar munosabatida ular milliy madaniyatlarining o'zaro ziddiyatli ta'sirida namoyon bo'ladi.

Zamonaviy insonning estetik, axloqiy, hatto siyosiy ongida yuksak va ommaviy madaniyatlar turli darajada keltirib chiqargan interferentsiyani kuzatishi mumkin. Yuksak va ommaviy madaniyatlarning o'zaro interferentsiyasi haligacha na respublikamizda, na xorijda alohida ilmiy tadqiq etilgan emas.

Har holda ushbu satrlar muallifiga bunday tadqiqotlar noma'lum. Eng avvalo qayd etish lozimki, madaniyatlar interenferentsiyasi – nisbiy tushuncha. U madaniyat mahsulotlarida emas, ko'proq jamiyat a'zolarining, san'at ahlining, siyosatchilar va qonun ijodkorlarining qarashla-rida, kengroq olsak, ijtimoiy mo'ljallarida, ya'ni ma'naviyatida namoyon bo'ladi. Masalan, rivojlangan g'arb mamlakatlarida ba'zi an'anaviy axloqiy mezonlarning, fundamental oilaviy qadriyat-larning chuqur deformatsiyaga uchragani, bizning fikrimizcha, ular-ni ommaviy madaniyat ta'sirida qisman so'ngani va o'zgargani natijasidir.

Madaniyatlararo interferentsiyasi tufayli qadriyatlar, mezonlar tizimi o'zgarmoqda, san'atda degumanizatsiya (insonparvarlikni yo'qotish) chuqurlashmoqda.

Bugun ayon bo'lmoqdaki, milliy madaniyatlar aloqalarini faqat ijobiy baholash mumkin emas. Ayniqsa axloqiy, siyosiy va maishiy sohalarda jahon miqyosida milliy madaniyatlar interferentsiyasi hollariga misollar ko'p. Milliy madaniyatlar interferentsiyasi – alohida o'r ganiladigan o'ta murakkab mavzu. Uni o'r ganishda juda katta va keng miqyosda qiyosiy va sotsiologik tadqiqotlar o'tkazish talab qilinadi. Lekin muhoxirlar hayoti va yangi voqelikka integratsiyalashuvi qiyinchiliklari ushbu ma'noda mulohaza uchun ancha-muncha material beradi.

## BIRINCHI BOB BO'YICHA XULOSA

Chet til ta'limi o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, unda ta'lim mazmuni, maqsadi bilan birga duch kelinadigan til materialiga oid turli qiyinchiliklarni bartaraf etishni talab etadt.

Chet tildan bilim, ko'nikma va malakalarning shakllanishiga ona tili va ikkinchi tilning ijobiy (transpozitsiya) va salbiy (interferentsiya) ta'sir ko'rsatishi amaliyotdan ma'lum. Ijobiy va salbiy ta'sir sabablarini talabaning til tajribasidan qidirish zarur. Buni o'qituvchi oldindan bilishi talab etiladi. Talabalarga lisoniy hodisalarning til ichki qiyosiy tahlilini o'tkazish metodlari va usullarini o'rgatib boriladi. Chet til o'rganishda uning birliklari ona tilidagi lisoniy ko'nikmalar bilan munosabatda bo'lishi tabiiy holdir.

Til materiallaridan fonetika, leksika va grammatikani o'zlashtirish chog'ida eshitish-talaffuz ko'nikmasi shakllantiriladi. Til materialini nutqda qo'llash natijasida nutqiy malakalar hosil qilinadi. Til materialining izchillik bilan bayon qilinishi o'quvchilarining uzluksiz va tizimli sur'atda mustaqil ish olib borishlarini, kelajak amaliy faoliyatlari uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar hosil qilishlarini ta'minlaydi. Chet til o'qitish jarayonida til materiali asosida nutq ko'nikmalarini shakllantirish malaka hosil qilish bilan izchil o'zaro bog'langan holda olib boriladi. Zero, talaffuz, leksik va grammatik ko'nikmalarsiz tinglab tushunish, gapirish, o'qish, yozuv malakalarini rivojlantirib bo'lmaydi.

## **2-BOB. CHET TIL O'QITISHDA MAVJUD INTERFERENTSIYALARNI BARTARAF ETISH TEXNOLOGIYALARI**

### **2.1. Qiyinchiliklarni bartaraf etishda til va nutq mashqlarining o'rni**

Til - juda serqirra, ko‘ptomonli hodisa. Uning har bir qirrasi, tomoni alohida bir metod bilan tadqiq etiladi, o‘rganiladi. Shunga ko‘ra tilshunoslikda tilning taraqqiyot va o‘zgarishlarini o‘rganadigan *tarixiy lingvistik metodlar* (*diazronik lingvistik metodlar*), uning nisbatan turg‘un, barqaror (sinxoronik) holatini tasvirlovchi *sinxronik tavsif metodlari*, turli tillar orasidagi o‘xshashlik va farqlarni o‘rganuvchi *qiyosiy (tipologik) tadqiq metodlari*, tillar orasida qarindoshlik (bir tildan bir necha tillarning keib chiqishi) masalalari va tomonlarini o‘rganuvchi *genealogik lingvistik tadqiq metodi*, ikki va undan ortiq tillarning qorishuvi natijasida yangi bir tilning paydo bo‘lishini o‘rganuvchi *lingvistik chatishuv (interferensiya) metodlari*, til hodisalari va birliklarining xilma-xil tajriba-sinov uskunalarini vositasida tadqiq qiluvga moslashtirilgan *eksperimental lingvistik tadqiq metodlar* kabi o‘nlab tadqiq usullari va shularga muvofiq ravishda tilshunoslik yo‘nalishlari – tarixiy tilshunoslik, tavsifiy tilshunuslik, qiyosiy tilshunoslik, ekspeimental tilshunoslik, tipologik tilshunoslik v.h. yonma-yon yashab, bir-birini to‘ldirib kelmoqda.

O‘zga til ta’siri – to tillar interferensiyasi sodir bo‘lib, ikki tildan yangi bir uchinchi tilning – har ikkala oldingi tildan farqlanuvchi yangi bir tizimning shakllanmagunicha – tizimiynun munosabatlarning ichiga suqilib – tizimni yorib – kira olmaydi. Shuning uchun ham “o‘zga tillardan o‘zlashgan fonemalar” masalasiga ham ehtiyyotlik bilan yondahish kerak.

Birinchi navbatda bu, albatta, o‘zbek tilida /q/ va /k/, /g'/ va /g/ juftliklarida qattiqlik~yumshoqlik fonologik farqini saqlanishi masalasi talqiniga oiddir. Ko‘rib o‘tganimizdek, bunday farqlanish eng qadimiy turkiy fonologik xususiyat bo‘lib, ma’lum sabablarga ko‘ra (biz bu haqda navbatdagi ma’ruzalarimizda fikr bildiramiz) turkiy tillarda u yo‘qola borib, o‘rnini boshqa qonuniyatga bo‘shatgan,

lekin o‘zbek tilida sanoqli juftliklarda saqlanib qolgan. Bunga, shunhasiz, bu fonemalarni izshil farqlovchi boshqa tillar – jumladan, arab va eroniy tillarning ta’siri bo‘lishini inkor etib bo‘lmaydi, lekin bunday fonologik farq o‘zga tillardan olindi deb da’vo etish mutlaqo asossiz.

Qiyinchiliklarni bartaraf etishda til va nutq mashqlaridan foydalaniladi. Nutq mashqlari tayyorlangan va tayyorlanmagan bo’ladi. Bulardan tashqari kommunikativ mashqlar ham bajariladi.

Har qanday holatda mashqlar bajarishda mazmunga e’tibor beriladi. Ko’p hollarda qiyinchilik leksik birlikning qo’llanishida bo‘lishiga sabab, so’z ma’nosining ona tili va chet tilda mos kelmasligidir. Bunday vaqtida so’zni izohlash, tushuntirish talab etiladi. Masalan: zum Wohl! (Sog’lig’ingiz uchun!), Taxi nehmen (taksida bormoq) va boshqalar.

Buning uchun og’zaki, yozma, tarjimali va tarjimasiz mashqlarni bajarish maqsadga muvofiqdir. Bunday mashqlarga mos, qoldirilgan joylarni to’ldirish, berilgan matnni yoki gaplarni tugatish, berilgan so’zlar ishtirokida gaplar tuzish, berilgan so’zlarni qo’llab savollarga javob berish, tanish matn asosida matn yozish (esse) va shu kabilar kiradi.

Til materialini tushuntirishda quyidagilarga ahamiyat berish talab etiladi: (1) yangi materialga oid ma'lumotni bilish, (2) materialning qiyin joylariga alohida ahamiyat berish, (3) grammatik qoida-ko’rsatma yoki umumlashmani o’quvchilarga tushunarli tarzda ta’riflash, (4) grammatik materialni metodik jihatdan to’g’ri taqdim etish, (5) namunalarda grammatik materialning qo’llanilishini ko’rsatish. Til materialini nutqda izchil qo’llashga mo’ljallangan mashqlar tuzishda quyidagilarga ahamiyat berish talab etiladi: (1) aniq til hodisalarini o’zlashtirishdagi qiyinchiliklarni bilish, (2) mashqlardan ko’zlanadigan maqsadni belgilash, (3) mashqlarni tuzish printsiplarini bilish, (4) mashqlarning turlari va xillarini bilish, (5) til materialini nutqda qo’llashda samaradorligi yuqori bo’lgan mashqlarni bajarishni uyushtirish.

Nutq ma’no va mantiq jihatidan qiyinchiliklarni bartaraf etishga xizmat qiladi. Maktab sharoitida har qanday chet til matni ichki tarjima jarayoni bilan

izchil bog'lanadi. Tarjima tillarning rivojlanishi uchun zarur vosita hisoblanadi. Tarjimani o'rganish-o'rgatish aniq maqsad bilan sekin-asta izchillikda olib boriladigan jarayondir. Avval so'z, gap va kichik matn ustida ishlash o'rgatiladi, so'ngra murakkab, katta hajmdagi matnlar ustida ishlanadi. Masalan, maktabda o'quvchilarga tarjimani o'rgatib borish izchilligini ko'rib chiqaylik: Birinchi bosqichda, alfavitni yaxshi bilish, lug'at bilan ishlash, tarjima diktanti (so'zlar ona tilida aytildi, o'quvchilar chet tilda yozadilar), gap tuzish, so'zni o'rniiga to'g'ri qo'yish, chet tildan ona tiliga sodda gaplarni tarjima qilish (og'zaki va yozma bajarish) mumkin. Ushbu bosqichda "G" harfidan oldin va keyin qanday harf kelishini, shu harfdan keyin uchta harfni ketma-ket aytish va boshqalar mashq qilinadi. Yuqori bosqichda mana shu mashqning izchilligi lug'atdan so'zni topishda so'zning bosh harfini emas, balki so'zdagi ikkinchi va uchinchi hamda boshqa harflarni topish, lug'atga so'zni joylashtirishni mashq qildirish orqali ta'minlanadi.

Gaplarga savol qo'yish, savolga matndan javob topish, bir abzatsni o'qib, mazmunini tushunib olish, birinchi gapni o'qib, uning tarkibidagi til birliklariga qarab gapning turini va tuzilishini aniqlash, masalan, bog'lovchilar yoki so'z tartibi, qo'shma gap bo'lsa, bosh gapni va ergash gapni aniqlash, gap bo'laklarini moslashuvini ta'minlash mashqlarini bajarish orqali izchillik amalga oshiriladi. Mazkur bosqichda: yaxlit matnni o'qish va unda gap nima haqida ketayotganligini tushunish, mazmunini ona tilida so'zlab berish, abzatsni tarjima qilish, tarjimani mantiqan bog'langanmi yoki yo'qmi, tekshirib ko'rish, til bo'yicha xatolar yo'qmi, ma'nosи asliyatdan olinganmi yoki uzoqlashganmi, tarjimani asliyat bilan qiyoslash. Til hodisalarining ma'nosini ochishda tarjimadan va kontekstdan foydalanishga alohida e'tibor beriladi. Tarjimani o'rgatishda quyidagi mashqlardan izchil foydalanish yaxshi samara beradi:

- a) sonlarni o'qituvchidan keyin qaytarish (aytilgan songa birni qo'shib, o'nni olish);
- b) chet tildagi uchta so'zdan iborat tuzilgan qatorni ovoz chiqarib tarjima qilish; v) jumlanı tugatish;

g) birorta sana aytish, ushbu sana sana bilan qanday voqealar bog'lan- ganligini aytish;

d) intervъyu parchasini, ob-havo ma'lumotlarini chet tildan ona tiliga tarjima qilish.

Xullas, chet til o'rganish/o'rgatish jarayonida har qanday bajariladigan mashq o'zaro izchillikni taqozo etadi. Barcha mashqlar bir-biriga bog'langan holda, ya'ni izchil tarzda bajarilganda, xohlagan maqsadga erishish mumkin. Ko'nikma hosil qilish uchun bir xil sharoitda qayta-qayta mashqlar bajarish talab etiladi, malakani shakllantirishda esa sharoitning o'zgarishi va mashqlarning izchil tarzda murakkablashuviga asoslangan mashqlar bajariladi. Ko'nikma va malakaning shakllanishi bir jarayonning o'zi hisoblanadi, "ko'nikma" va "malaka" tushunchalari turli bosqich emas, balki ushbu jarayonning turli jihatlaridir. Izchillik printsipi nutq uchun zarur til materiali va nutq faoliyati turlarini nutq vaziyatlarida uzluksiz har darsda mashq qilinishi zarurligini talab etadi. Albatta, bu ish nutq mavzulari asosida olib borilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ta'lif muassasalarida o'rganilayotgan chet til (olmon tili) fanlarining o'zaro izchillik xususiyatlari va shu asosida talabalarda olmon tili bo'yicha ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan o'quv-metodik qo'llanma, o'quv dasturlari va rejali hamda uslubiy tavsiyanomalar yaratildi. Ulardan o'rta va oliy mifik o'quvchi hamda talabalari, o'qituvchilari orasida o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari jarayonida foydalanildi. Unda o'quvchi va talabalarga chet til bo'yicha muayyan ko'nikma va malakalarni tarkib toptirishda izchillikni ta'minlovchi usul va vositalarni samarali qo'llash, o'zaro lingvodidaktik asoslarni ta'minlash va uni tajriba-sinov jarayonidan o'tkazish asosiy maqsad qilib olindi. Eksperimental tadqiqot jarayonida tajriba-sinov maydonlariga jalb etilgan ta'lif muassasalari o'qituvchilari, o'quvchi hamda talabalarining biz tomonimizdan taklif etilgan metodikaga nisbatan munosabatlarini, fikr va mulohazalarini aniqlashga e'tibor qilindi.

Chet til (olmon tili) o'qitish jarayonida vujudga keladigan ayrim qiyinchiliklarni bartaraf etish chora- tadbirlari taklif qilindi. Ushbu bosqichda

o'qituvchilarning kalendar-tematik rejalar, kundalik mavzuiy rejalar va olmon tili o'qitish jarayoni qayta nazorat qilinganda, ularda izchillik ta'minlanganligi ma'lum bo'ldi. Uchinchi bosqichda ilgari surilgan farazning hayotiyligi, yangiligi, ishlab chiqilgan tavsiyalarning samaradorligini aniqlash maqsadida o'tkazilgan tajriba-sinov natijalari umumlashtirildi. Ta'limda izchillikning ta'minlanishi jarayonini tashkil etish hamda o'quvchi va talabalarning ilmiy bilimlari, ko'nikma hamda malakalarining shakllanganlik darjasini aniqlandi. Eksperimental tadqiqot natijasida aniqlangan nazariy yondashuvlar, qoidalar, qarashlar, g'oyalar ushbu bosqichda amaliy jihatdan o'z tasdig'ini oldi.

Mazkur bosqichda chet til ta'limida izchillikni ro'yobga chiqarishning lingvodidaktik xususiyatlarini ta'minlash, ta'lim metodi va vositalarini takomillashtirish yo'llarini ko'rsatishga erishildi. Qayta nazorat etishga qaratilgan tajriba-sinov ishlari ham keng ko'lamda tashkil etildi. Maqsadimiz chet til ta'limida izchillikni ta'minlashning lingvodidaktik imkoniyatlarini turli zamonaviy texnologiyalar hamda ta'lim metodlari va vositalari yordamida o'quv mashg'ulotlarini takomillashtirish shartlariga ko'ra amalga oshirishning samaradorligini ko'rsatib berishdan iborat edi. Shu bilan bir qatorda, chet til (olmon tili) fani bo'yicha ko'nikma va malakalarni shakllantirish, chet til ta'limida izchillikni ta'minlash bo'yicha bilimlarni o'quvchi va talabalarda hosil qilish jarayonini takomillashtirishning ilmiy asoslari taklif qilindi. Olingan natijalar tadqiqotda ilgari surilgan ilmiy farazning to'g'rilingini tasdiqladi. Shu bilan bir qatorda chet til o'qitishda izchillikni ta'minlash xususiyatiga ega bo'lgan barcha o'rganilayotgan mavzular orasidagi bog'lanish, o'quvchilar va talabalar tomonidan chet tilni o'zlashtirish darjasini hamda izchillikka asoslangan muammolarni erkin hal etish ko'nikmalari rivojlandi.

O'quv-tarbiya muassasalarida chet til ta'limida izchillikni ta'minlash o'qituvchi uchun ham, talaba uchun ham zaruriy, ayni paytda, murakkab pedagogik jarayondir. Mazkur jarayonga taalluqli tushunchalar, mavzular axborot vositalari yordamida singdirilishi ham mumkin. Unda talabalar chet til ta'limida izchillikning mukammal shakllanish bosqichlari, murakkab jarayonlari haqida

bilimlarga ega bo'ladilar. Mazkur tushunchalar chet tilda izchillik haqida talabalarga nazariy va amaliy ma'lumotlar beradi. Tajriba-sinov jarayonida darslarni pedagogik texnologiya va zamonaviy metodlarni qo'llab izchillik asosida o'tilganda, o'quvchi va talabalarda mustaqil va erkin fikrlash, materialni puxta egallash, izlanish va ijodiy qobiliyat o'sganligiga amin bo'ldik. O'quvchi-talabalarni pedagogik texnologiyalar va zamonaviy metodlarni qo'llagandagi darslar juda qiziqtirdi. Ular mavzularni o'zlari tanlashdi, mashq va topshiriqlar ham ularning qiziqishlarini, qobiliyatlarini hisobga olib tanlandi.

Ta'lim sohasining oqsayotganligi ham ana shunda. Bular, birinchidan, o'rta va oliv maktabda har bir fanni o'qitish kontseptsiyasining yo'qligidandir. Bu esa o'z-o'zidan ta'limda izchillik me'yorining buzilishiga, natijada maktab va oliv maktab o'qitish tizimida nomuvofiqlikning kelib chiqishiga sabab bo'ladi; ikkinchidan, zamonaviy milliy talablarga mos keladigan o'quv-metodik qo'llanmalarining yetishmasligidadir. Izchillik me'yorining buzilishi, jumladan maktab, litsey kollej, bitiruvchilarining yetarli darajada til tayyorgarligiga/tajribasiga ega emasligi oqibatida, oliv ta'limda birinchi bosqich talabalari qiyinchilikka duch keladilar.

Maktab (litsey, kollejlardan)da olingan bilimlar oliv ta'lim talabiga javob bermaydi, chunki o'rta maktab, litsey, kollejlarga xos o'qitish metodlari va oliv ta'limda yangi sifatli o'qitish o'rtasida nomutanosiblik mavjud. Ana shu uzilish muammosini bartaraf etish yo'llaridan biri takrorlash-korrektiv kursning tashkil etilishidir. Mazkur kurs mustaqil hisoblanib, chet til ta'limi mazmunida o'zini oqlagan. Korrektiv kursda leksiq grammatik va fonetik materialni oliv o'quv yurti chet til dasturi talabiga ko'ra sistemalashtiriladi.

Oliv maktab chet til muallimlari chet til ta'limi jarayonida har doim ham maktab dasturining xususiyatlarini hisobga olavermaydilar. Bu esa, o'z navbatida izchillikka erishishga g'ov bo'lishi mumkin. Maktabda chet til o'qitish jarayonining amaliy maqsadi nutqiy muloqotni tashkil qilish bo'lsa, nolisoniy ixtisoslik uchun tanlangan sohadagi matnlarni o'qib axborot olish, murakkabroq sohaviy matnlarni lug'atlar yordamida o'qib tarjima qilish va dastur doirasidagi

nutq mavzulari yuzasidan chet tilda fikr bayon qilishdir, ya'ni oliy maktabda o'qishdan tashqari gapirish ham katta o'ren egallaydi. Oliy maktabda talabalarga faqat tor mutaxassislikdangina emas, balki keng ixtisoslik bo'yicha pedagogika va psixologiyadan ham ma'lumot, bilim beriladi. Shu bois chet til fanidan mavjud darsliklar I va II bosqich uchun qo'llanma bo'lsa, II va III bosqichda qo'shimcha materiallar: gazeta va jurnallar, o'qish kitoblari, internet materiallari va boshqalardan keng foydalilaniladi. Oliy o'quv yurtlari dasturida ko'rsatilgan og'zaki va yozma nutq amaliyoti kursining maqsadi talabalarda lingvistik kommunikativ va lingvomamlakatshunoslik kompetentsiyasini shakllantirishdir. Dasturda har bir kurs uchun alohida o'qitish mazmuni va talablari ko'rsatib o'tilgan [9: 217].

## **2.2. Interferentsiyani bartarf etish usullari**

Chet tili o'qitish ongli bo'lмаган, yozuvga ham ahmiyat berilmagan, ona tili qo'llanilmagan, grammatika inkor etilgan Garoldь Palmer metodi. Ingliz metodisti G.Palmer Tokioda yashab, yaponlarga ingliz tilini o'rgatgan. Ingliz tilini o'rgatish natijasida o'z metodini yaratgan. Uning metodi tinglab qabul qilish natijasida tahlil qilishga, yodlab o'rghanishga va o'rgatishga asoslangan.

Barcha til materiallari shunday o'rgatilgan. G. Palmerning asosiy metodik printsiplari quyidagilar:

- 1) Til o'rgatishning og'zaki nutqdan boshlash.
- 2) Bir yoki 2 oyni o'quvchilar faqat ingliz tilini tinglash, uning iborasi bilan aytiganda, ingliz tili nutq jarayonida bo'lish davri hisoblangan.
- 3) Ingliz tilini intuitiv o'rghanish, uning fikricha ong ishtiroksiz tilni o'rgatish va bu albatta noto'g'ri fikridir.
- 4) Grammatik materialni jadvalda qoida bermay o'rgatish.
- 5) Tilni alohida olingantartibida o'rgatish.
- 6) Qiyinchiliklarni asta – sekin berish.
- 7) Psixologik omil – qiziqish va qiziqtirishga ahamiyat berish.

8) O'quvchilarni tinglashga o'rgatish, chunki material og'zaki o'rgatilgan. G.Pal'mer chet tili o'qitishning og'zaki kursini ishlab chiqdi, amalda qo'llab ko'rsatdi, qo'llanmalar yozdi. To'g'ri metodni rivojlantirdi.

Uning metodi quyidagi bosqichlarga bo'linadi.

1) Retseptiv ish mashq. O'quvchilar faqat nutqini tinglab o'zlashtiradi. a) O'qituvchi talaffuz qiladi, o'quvchi tinglaydi. b) Ongli tushunish, o'qituvchi har xil vazifa topshiriqlar beradi, o'quvchi bajaradi. v) Chet tilidagi topshiriqlarni buyruq orqali ish – harakatini bajartiradi. g) Ja va Nein mashqi, umumiy savol berdi o'quvchilar *Ja* va *Nein* orqali javob beradi.

2. Retseptiv (taqlid mashq). O'qituvchi gapiradi, o'quvchilar ma'lum nutq namunalarini: a) tovushni, so'zlarni; b) so'ngra oddiy gaplar tahlil qilib qaytaradilar.

3. Ma'lum sharoitda suhbat. O'quvchilar savol javobni o'rghanadilar.

4. Normal oddiy sharoitda o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi suhbat.

U ingliz tili o'qitishni 4 bosqichga bo'ladi:

- 1) Boshlang'ich bosqich (Elementary stage);
- 2) O'rta bosqich (Intermediate stage);
- 3) Yuqori bosqich (Adantage stage);
- 4) Co'ngi bosqich (The laststage).

Birinchi va ikkinchi bosqichda ingliz tilini o'rgatishga katta ahamiyat berishi kerak, keyingi bosqichlar o'z – o'zidan rivojlanib ketaveradi deydi. Xulosa: Pal'mer og'zaki nutq orqali, Uest esa o'qish orqali ingliz tili o'qitish metodikasini boyitib, qo'llanma darsliklar yaratdi.

Hozirgi kunga kelib chet til o'qitish metodika sohasi rivojlanib bormoqda. Audio-lingval va audio-vizual metodlar va madaniyatlararo muloqot kompetentsiyalari ravnoq topmoqda. Charlz Friz va Robert Ladolar o'zlarining "Oral approach" nomi bilan mashhur metodlarini yaratdilar. Bu metod printsiplari quyidagilar:

- 1) Og'zaki nutq yozma nutqdan oldin o'rgatilishi;
- 2) Talaffuz namunasini ko'rsatish va taqlid qilish;
- 3) O'rgatilgan gaplarni tuzilishi bo'yicha eslab qolish;

- 4) Yozuvda faqat og'zaki nutqda o'rganilgan materiallarni berish;
- 5) Qiyinchiliklarni asta-sekin bartaraf etish;
- 6) Fakt amaliy mashqlar bajarish;
- 7) O'quvchilarni darsdagi 85% vaqtini, mashq bajarishiga, 15% o'rganayotgan materialni tushuntirishga ajratilsin.

Bu metod asosan maktabgacha bo'lgan muassasida o'rgatiladi, chunki o'quvchilar ma'lum vaqtgacha o'qish va yozishda o'rgatilmaydi. Robert Lado quyidagilarni taklif qiladi:

- 1) Taklif orqali yodlatish;
- 2) Tanish struktura asosida ongli ravishda yangi materialni tanlash;
- 3) Model va strukturalarni erkin qo'llay olish.

Og'zaki nutq ham o'qitish-o'rganish maqsadi, ham vositasi bo'lgan. Shu bois talaffuzni o'rgatishda duch kelinadigan qiyinchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etib borilmas ekan, o'quvchilarning tili qotib qolishi, bu so'zlarni doimo noto'g'ri talaffuz etishlari mumkin. Bu jarayonda tez samaraga erishish uchun audio-lingval metoddan foydalanish tasiya etiladi. Chunki, audio-lingval metod orqali mehmonxona, do'kon, port, aeroport, restorantlarda ishlaydiganlarga chet tilini tez va samarali o'rgatish mumkin bo'ladi.

Charlz Friz Michigal Universitetda ishlab, "Teachilng English and Learning English as a Foreigu Language" kitobini yaratdi. Uning fikricha chet tili o'qitishdan maqsad qanday bo'lmasin, o'quvchilar til materiali bilan birinchi marta tinglash, gapirish orqali tanishtirilishi lozim. Audio – vizual metod. Bu metod XX asrning 40-yillaridan rivojiana boshlanadi. Uning asoschilar yuksalish metodisti Petr Guberina, frantsuz metodistlari Pol Revank, Jorj Guinesmdir.

Uning markazi Sen Klu shaxridir. Ushbu metod mualliflari quyidagilarga asoslanib ishlaganlar.

- 1) Jonli tilning dialogik shakli olingan.
- 2) O'qish o'rgatishning asosi og'zaki nutq deb qaralgan.
- 3) Yangi material butun strukturalarning tinglash ko'rish orqali berilgan.

4) Yangi meterial ma'nosi; mazmuni faqatgina predmet, rasm, harakatlar, tinglash, ko'rish orqali berilgan.

5) Yangi til materiallarni o'zlashtirish, tahlil qilish, yodlash o'xshashligi bo'yicha strukturalarni tuzish orqali bo'lgan.

Bu metod orqali chet tili o'rganishdan o'quvchilar o'rganayotgan materiallarni bir vaqtida tinglaydi, ekran yoki rasmida ko'radi. O'qitish faqat ingliz tilida olib boriladi, tinglash, ko'rish, texnik vositalardan foydalanish mo'ljallangan. Ushbu metod ikki bosqichni o'z ichiga oladi: Retseptiv ish: Reproduktiv ish.

Retseptiv ishda o'quvchilar suhbatni chet tilida 2-3 marta eshitadi, ko'radi, esda saqlaydi.

Reproduktiv ishda esa o'quvchi suhbatini ovozsiz ko'radi, so'zlovchining o'rnida gapiradi, qaytaradi. So'ngida esa o'quvchilar uni kengaytiradilar.

### **Talaffuzni o'rgatish metodlari**

Nemis tili darslarida fonetik interferentsiyalarni bartaraf etish metodlar orqali amalga oshiriladi.

**Birinchi metod.** Tovush talaffuzini tinglab, aynan o'zini qaytartirish yoki taqlid (immitatsiya) qilib o'rgatish metodi. Bu quyidagicha o'tkazilishi mumkin:

1. Yangi tovush so'zda yoki nutq namunasida o'qituvchi tomonidan talaffuz qilinadi;
2. O'qituvchi tovushni ajratib olib, (xarf yoki transkriptsiya orqali) doskada ko'rsatadi;
3. O'qituvchi tovushni talaffuz kilish-ni ko'rsatib, o'zi uni bir necha marta talaffuz qiladi;
4. Tovush o'quvchi va talabalar tomonidan taqlid qilinib, bиргаликда jo'r bo'lib yoki yakka talaffuz qilinadi;
5. O'quvchilar tovush bor so'zlarni, gaplarni talaffuz qiladilar;
6. Tovush va tovush birikmalarini nutq faoliyatida qo'llaydilar. Taklid qilish ongli bo'lishi (ikkinchi bosqichda), unda ongni kam ishtirok etishi (birinchi boskichda) mumkin. Ongli taqlid qilish analiz-sintez orqali bo'ladi.

**Ikkinchi metod.** Tushuntirish metodi. Bu metod asosan ona tilidagi tovushlar bilan kisman o'xhashi umuman yo'q bo'lgan tovushlarni o'rgatishda qo'llaniladi. Bu yerda o'qituvchi o'zi talaffuz qilishidan oldin uni talaf fuz qilishning o'rnini, xususiyatini tushuntiradi, ko'rsatadi. So'ng talaffuz qiladi, o'quvchilar va talabalar taqlid qilib, yakka talaffuz qiladilar. Tushun-tirish bilan taqlid bir-birini to'ldiradi, lekin bular ikki xil metod sanaladi.

**Uchinchi metod:** Analiz yoki tahlil qilish metodi. Bu metod ayniqsa, ona tilida umuman yo'k, uchramaydigan tovushlarni ta-laffuz qilishni o'rgatishda mos kiladi. Umlautlarni o'rgatayotganda talaffuz kilish o'rni tovushni talaffuz qilmay mimikalar bilan ko'rsatilib, o'quvchilar bilan birga chuqur tahlil kilinadi. O'quvchilar tovushning talaffuz qilish o'rnini, ishtirok etayotgan nutq organlarini ko'radilar, tahlil kilib aniqlaydilar.

Ular tovushni xosil qilish, talaffuz qilish o'rnini belgilab xulosa chikaradilar. So'ng nutq organlarini bu tovushni talaf fuz kilish xolatiga keltiradilar. O'qituvchi talaffuzidan keyin o'quvchilar yakka-yakka talaffuz kiladilar. Bu metod ilmiy metodik adabiyotlarda alohida metod deb ko'rsatilmagan.

Talaffuz farqini o'rgatishda tinglash-ko'rish vositalardan foydalanishni G. V. Rogova quyidagicha ko'rsatadi:

1. Tovushning farkini ko'rsatuvchi so'zni ifodalaydigan rasmni, predmetni ko'rsatib, talaffuz qilish orqali. Masalan, Schiff-Schaffe. O'qituvchi rasmni ko'rsatadi yoki doskaga rasmi chizadi.

2. Harakatni ko'rsatish orqali. Masalan, Sie liest. Er schreibt.

3. Tovush belgisini ko'rsatish orqali. Talaffuzni o'rgatish urg'uni, ohangni ham o'z ichiga oladi. Masalan, Es ist ein Bleistift.

O'qituvchi urg'uni xisobga olib so'zlarni ko'tariluvchi, pasayuvchi oxanglaridagi jumla, gaplarni talaffuz qilib yoki texnik vositalardan foydalanib, yakka bo'lib, yakka talaffuz, taklid qilish orqali o'rgatadi. Tovushlar, fonetik materiallar tanishtirilgandan keyin ularni nutq faoliyatlarida qo'llay olishlari uchun nutk faoliyatlarda o'zlashtirish, mustaxkamlash mashklari bajartiriladi.

Talabalar kontekstda polisemantik leksik birliklarni idrok qilishda duch keladigan interferentsiya murakkablik va xatoliklari aniqlandi.

Ko'p ma'noli so'zlar asosida til ichi va tillararo interferentsiya xatolari nemis tilidagi matnlarni o'qish bo'yicha tushunish, qabul qilish, o'zlashtirishni aniqlashtirish imkonini beradi. Barcha tillarda ko'p ma'nolilik hoidasi mavjudligi til sohiblarining ko'p ma'noli so'zlarga bo'lgan ehtiyojining katta ekanidir. Bizningcha, muayyan tilning polisemiyaga ehtiyoji shu til alifbosidagi harflar soniga bog'liq bo'lishi mumkin.

Xususan, nemis tilida 26 ta, o'zbek tilida 29 ta, rus tilida 33 ta harf mavjud. Turli so'z turkumlarida (aynan fe'l, ot va sifatlarda) o'tkazilgan tahlillarimizga ko'ra aniqlandiki, nemis tilida ko'p ma'noli so'zlarga ehtiyoj o'zbek va rus tilidagiga qaraganda kattaroq. Demak, nemis tilida polisemiyaboshqa tillarga qaraganda ko'proq rivojlangan. Ko'p ma'noli so'zning ayrim kontekstual ma'nolarini belgilashga oid murakkabliklar ham tahlil qilindi.

So'zlarni nemis tilidan ona tiliga tarjima qilishda ko'p ma'noli so'z ma'nolarini tanlash bilan bog'liq ko'p sonli til ichi va tillararo interferentsiya muammolari yuzaga keladi va, albatta, bunda kontekst muhim rol o'ynaydi. Kontekstual ma'nolar so'zlarni qo'llash jarayonida sintaktik qurshovga bog'liq holda namoyon bo'ladi, tor, keng hamda nolisoniy kontekst ta'siri ostida voqelanadi.

Ko'p ma'noli so'zning ma'nosini to'g'ri aniqlash uchun nemis va rus tillaridagi kabi o'zbek tilida ham kontekst muhim rol o'ynaydi. Bunda, avvalo, kontekstni batafsil tahlil qilish lozimki, u polisemianing qaysi ma'nosi shu o'rinda to'g'ri kelishini ko'rsatib beradi. Bunda kontekstning mavzusi va u bilan belgilanadigan ko'p ma'noli so'zning valentliklarini leksik to'ldirish juda muhim o'rin tutadi. Kuzatishlardan ma'lum bo'ldiki, kontekst u yoki bu ko'p ma'noli birlikning faqat bitta ma'nosini namoyon etadi, qolgan ma'nolari esa vaqtincha xiralashadi. Bu bilan kontekst ko'p ma'noli so'zga bir ma'nolilik baxsh etib, shu birlikning tarjima tilidagi potentsial mavjud bir necha muqobilidan bittasini tanlashni taqozo qiladi.

Kontekst va kommunikativ akt sodir bo'layotgan vaziyat polisemiyani bartaraf qiladi. Ko'p ma'noli so'z bir ma'noli so'zga aylanadi, bu talabaning grafik materialni tarjima qilishdagi vazifasini yengishlashtiradi.

Demak, talaba ko'p ma'noli so'zning tarjimaviy ma'nolari emas, balki kontekstual ma'nolari beriladigan bir tilli lug'atlardan (masalan, En-En) foydalansa, ko'p ma'noli so'zning ma'nosini to'g'ri aniqlashi ancha oson kechadi.

Shuningdek, ishda polisemiyaning topologik tiplari va ma'no ko'chish tiplari (metafora va metonimiya) lingvovidaktik jihatdan tahlil qilindi.

AKT sohasi bo'yicha tilni o'qitish asosida nemis cha so'zlar semantik maydonining periferik va kontekstual ma'nolarini aniqlashtirish asosida so'z ma'nolarining o'zaro bog'liqligi ham tahlil qilindi, bunda polisemiyaning uchta topologik tipini: radial, zanjirli va radial-zanjirli turini ajratish mumkin. Radial polisemiyada so'zning barcha hosila ma'nolari asosiy, bosh ma'no bilan bog'liq va umumiy notrevial qismga ega bo'ladi.

Zanjirli polisemiyada so'z ma'nolarining har biri bevosita eng yaqin ma'no bilan bog'liqlik, u bilan motivatsiyalanganlik kasb etadi. Radial-zanjirli polisemija esa aralash tip bo'lib, unda ayrim bo'g'inlar radial, boshqalari esa zanjirli aloqa bilan bog'lanadi.

Dinamik aspektida qaraladigan ma'nolarning metafora va metonimiya yo'li bilan ko'chishi ham o'r ganildi. Metaforik va metonimik aloqa tushunchalari leksema ma'nosini tavsiflashda faol qo'llanadi, ammo hamma vaqt ham tavsiflashning yetarlicha aniq quroli bo'lib xizmat qila olmaydi. Aynan shuning uchun ham yuqorida keltirilgan muntazam semantik muvofiqliklarning tavsifi alohida muhimlik kasb etadi.

Kontekstda polisemantik leksik birlklarni idrok qilishdagi murakkabliklarni tahlil qilish orqali talabalar tomonidan grafik materialni egallash va idrok qilishda yo'l qo'yiladigan asosiy murakkablik va xatoliklarni belgiladik. Ularning bir qator sabablari bor. Masalan:

- 1) ko'p ma'noli so'zlarning semantik strukturasini o'zlashtirishning til ichi va tillararo interferentsion muammolari;
- 2) ko'p ma'noli so'zlarni o'rganish borasidagi o'quv jarayonini metodik tashkil qilishning yetarlicha maqsadli yo'naltirilmaganligi;
- 3) ko'p ma'noli so'zlarning leksik-semantik aloqa va munosabatlari majmuida o'rganilmasligi;
- 4) ko'p ma'noli so'zlarning kontekstual ma'nolari bilan ishslash ko'nikmalarining yo'qligi kabilar.

Tarjimaga oid amaliyotlar tahlilida tarjima usullarini tarjima metodlaridan farqlash maqsadga muvofiqdir.

Usul – qo'yilgan maqsadga erishishning asosiy yo'li bo'lib, qilinadigan harakatlarning mavjud qonunlarini aks ettiradi. Bir tildan boshqa tilga o'tishning ikkita usuli bor: birinchisi bir tilga mansub so'z yoki belgidan boshqa tilga mansub so'z yoki belgiga to'g'ridan-to'g'ri o'tish, ikkinchisi esa aylanma yo'l orqali – avval bir tilga mansub belgidan mo'ljaldagi yoki predmetli vaziyatga va faqat shundan keyin o'giriladigan tilga mansub belgiga o'tishdir. Ilmiy manbalarda tarjimaning bu ikki usulidan birinchisi belgili, ikkinchisi esa ma'noli deb nomlanadi.

Metod yoki boshqacha aytganda, tarjima uslubi, odatda, xususiy masalani hal qiladi, ya'ni tarjima jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni yengib o'tishga yordam beradi. Tarjima uslublari, o'z navbatida, yana ikki guruhga bo'linadi:

- 1) tarjima mutanosibliklari;
- 2) tarjima tuzilishining o'zgarishi.

Tarjimani asliyat bilan taqqoslash shuni ko'rsatadiki, o'girish jarayonida asliyat tilning muayyan birliklari ma'nosi o'girilayotgan tilning bir xil birliklari yordamida uzatiladi (masalan: uy – das Haus, xona – das Zimmer, daraxt – der Baum).

Til birliklari nisbatan barqaror ma'noga ega. Shuning uchun tillardagi (bizning holatda hind-evropa til oilasiga mansub tillarda) bir xil predmetli holatlar o'xshash sintaktik konstruktsiyalar yordamida tarjima qilinadi.

Bir tildan boshqa tilga tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklar hamda tarjimada tilning «ruhiyati» yo'qolishi, ko'pincha, poetik asarlarni tarjima qilishda kuzatiladi. Ularning barchasi metodologik jihatdan noto'g'ri, chunki isbotlashni tilga tatbiq etib bo'lmaydi hamda kirishda berilayotgan va chiqishda olinayotgan axborotlar turli qatlam va ko'lamga tegishli bo'lgani uchun xulosalarning to'g'riliqiga qo'yiladigan eng oddiy mantiqiy qoidalarga to'g'ri kelmaydi. Masalan, nemis tilida artiklning mavjudligi nemislarning narsahodisalarni jinsiga aloqador qandaydir belgilariga qarab qabul qiladi, degan xulosani bermaydi. Xuddi shu kabi ergativ qurilishga ega bo'lgan abxaz tilida so'zlashuvchilar ish-harakatning sub'ekt va ob'ektini farqlay olishga qodir emas, degan xulosaning kelib chiqishi ham mantiqqa ziddir.

O'zbekcha «qo'l», ruscha «ruka» so'zlarining ingliz tilida «hand», «arm», nemis tilida «Hand», «Arm», so'zlari bilan, o'zbek tilidagi «kaptar» va «musicha» so'zlarining nemis tilida bitta «Taube» so'zi bilan berilishi nemislarning kaptar va musicha kabi turlicha bo'lgan ikki qushni bir-biridan ajrata olmaydi, degan xulosaga olib kelmasligi kerak. Chunki o'zbeklar kaptar va musichaning farqiga qanday yetsa, nemislar ham xuddi shunday yetadi.

O'zbek tilidagi «bilmoq» so'zi nemis tilida «wissen», «kennen» fe'llari bilan berilishi nemislarning o'zbeklarga qaraganda ko'prok bilishini yoki bo'lmasa bilishning turli xillarini anglashlarini ko'rsatadi, deb bo'lmaydi.

Ikki yoki undan ortiq tildagi so'zlarning ayrim ma'nolarini tipologik jihatdan solishtirganda va ma'nolarning mos tushmaslik holatlari kuzatilganda, tilshunoslar tomonidan «turli tilda so'zlashuvchi xalqlarning tushuncha apparati turlichadir», degan xulosa chiqariladi.

Til birliklari semantik mazmunining milliy o'ziga xosligi so'z birikmasi, gap va matn tarkibidagi murakkab semantik majmualarning paydo bo'lish imkoniyatini

inkor etmaydi, lekin bu majmular ifoda etgan ma'no ko'lamiga ko'ra turli tillarda bir-biriga o'xhash bo'lishi ham mumkin.

In'ikos tushunchasi shaklining ob'ektivligi tufayli til semantik tomonining milliy o'ziga xosligi bilish jarayonning sub'ektiv unsuri manba bo'la olmaydi.

Ammo til semantikasining milliy o'ziga xosligi namoyon bo'lishining yana bir tomoni borki, u til taraqqiyoti jarayonida tovush shaklini tanlashdagi motivatsiyaning o'ziga xosligi bilan aloqador bo'lib, uning natijasida hatto o'xhash ma'no guruhlarida xam «ichki forma» turli chegaralarni hosil qiladi, turli farqlovchi belgilar esa motivatsiyalanayotgan ma'noni xarakterlab beradi. Tovush tarkibining turli tillarda bir xil bo'lib qolishi farqlarning turli yo'naliishda bo'lganligi va bu tashqi o'xhashlik «qo'shimcha milliy o'ziga xos ma'no» hosil qilinayotganligidan dalolat beradi. Masalan, ingliz tilidagi «head» – kemaning oldingi qismi – burin; «head» – mixning qalpog'i; «head» – sutning ustki qismi, qaymog'i. Bu ma'nolardagi sub'ektiv xususiyat denotatning o'zini ifodalashga taalluqli emas. Barcha holatlarda mos keluvchi jismoniy hodisa o'zining belgilaridan birining belgisi bilan aniqlanadi. Bu belgini tanlash esa ingliz yoki o'zbek tilining o'ziga xos xususiyatlariga bog'liq bo'ladi.

Tilning etimologiya bilan uzviy bog'liq bo'lgan milliy va sub'ektiv omillari «barcha tillarda belgilanayotgan va belgilayotgan unsurlar o'rtaida munosabat bir xil bo'ladi va buning natijasida predmetning obrazi to'g'ri beriladi», - degan bosh fikrni inkor qila olmaydi. Shunday qilib, dunyoning kontseptual modeliga sezgi orqali olingan bilimni qo'shimcha unsurlar sifatida kiritishga qarshiliksiz bo'lganidek, tilda sezgiga aloqador axborot tildagi ratsional unsurlarga dunyoning kontseptual modeli va dunyoning lisoniy modeliga qo'shimcha qilinadi degan fikrga qo'shilib bo'lmasligi bu yagona gnoseologik mohiyat kasb etadi.

Og'zaki (sinxron) tarjima qilish uchun tarjimonning professional kompetentsiyasi (bilim, malaka va ko'nikmalar yig'indisi) quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo'lishi lozim:

- til kompetentsiyasi (asliyat va tarjima tillarini bilish);
- kommunikativ kompetentsiya;

- tarjima kompetentsiya (tarjima qilish malakasi);
- texnik kompetentsiyasi (axborot bilan ishslash malakasi);
- shaxsiy fazilatlar (xotirani rivojlantirish)

O'qitishning asosiy bosqichida og'zaki tarjima bilan bog'liq faol kompleks treningida xotira treningi, tildan tilga o'tish treningi, sur'at treningi, leksika ustida ishslash, transformatsiya treninglari amalga oshiriladi. O'qitishda foydalaniladigan mashqlarni tanlash ko'nikma va mahorat sirlarini shakllantirish zarurati bilan bog'liqligini taqozo qiladi. Ulardan eng muhimlari quyidagilardir:

- tinglash ko'nikmasi;
- mnemotexnika ko'nikmasi;
- transformatsiyalash ko'nikmasi;
- tildan tilga o'tish ko'nikmasi;
- nutqiy mexanizmlarni boshqarish ko'nikmasi;
- og'zaki nutq texnikasi ko'nikmasi;
- tarjima sur'ati;
- tarjima uchun mo'ljallangan matnni tinglash ko'nikmasi.

Kompetentsiyalar ilmiy sohadagi nazariy bilimlar, aniq kasbiy vaziyatlarda bilimlardan foydalanish bo'yicha amaliy tajriba, shaxsning qadriyat bilan bog'liq jihatlarini o'z ichiga oladi.

**Xorijiy tillarni o'qitish amaliyotida ona tilining chet tilga aralashishi natijasida paydo bo'ladigan xatoliklarni aniqlashda katta tajriba to'plangan.** Ushbu BMIda "*aralashuv*" atamasi o'rganilayotgan til normalarini buzadigan aniq, salbiy, interlingual aralashuvidir. Interferentsiya hollari turli darajalarda - fonetik, morfologik, leksiko-semantik va boshqa masalalarda ko'rib chiqilishi mumkin. Bizning ishimizda aralashuv fonetik darajada ko'rib chiqiladi.

Xorijiy tillarning fonetik tizimidagi farqlar o'quvchilarning chet tilini o'rganishdagi ko'plab fonetik xatolar sababidir. Bolaligidan talabalar o'rgangan qobiliyatları ona tilining talaffuz me'yorlarini o'zlashtirib, juda qat'iy ekanligini isbotlamoqda va yaxshi natijaga erishish uchun chet tilini o'rganishda talaffuz qilish uchun juda sistematik ish kerak.

Talabalar mahalliy va xorijiy tillarning fonetik xususiyatlarini bilishlari kerak, talabalarning xorijiy tillarning talaffuz me'yorlarini o'zlashtirishda va o'zlarining ish tuzilishiga muvofiq ravishda qiyinchiliklarni oldindan bilishlari kerak.

Shuni unutmasligimiz kerakki, yangi qobiliyatlar, ayniqsa ona tilining talaffuz normalariga zid bo'lsa, juda qat'iydir, shuning uchun talaffuz bilan ishslash jarayonida yodda tutish kerak va qabul qilingan narsalarga qaytishga qo'rmaslik kerak.

Nemis tili o'rgatish jarayonida amaliy foydalaniladigan metodlar uchta: *tanishish, mashq qilish va qo'llash*. Ushbu uch termin metodik tadqiqotlarda turli nomlar bilan yuritib kelindi. Ko'pchilik tan olgan va o'qitishda bevosita mushohada qilish mumkin bo'lgan mazkur metodlar o'quvchi nuqtai nazaridan nomlangan. O'quvchining chet til o'rganishdagi vazifasi o'quv materiali (ya'ni til materiali bilan tanishish, ko'nikma va malaka hosil qilish maqsadida mashq qilish hamda o'z fikrini bayon etish chog'ida, ya'ni nutqiy muloqotda tildan foydalanishdan iborat. Suhbat.

Gaplashish nutqi suhbatdoshdan gapirish va tinglab tushunish malakalarini talab qiladi. Shuning uchun ham tinglab tushunish malakalarini talab qiladi. Shuning uchun ham gaplashish nutqiga o'rgatish gapirish va tinglab tushunish malakalarini o'stirishni taqozo etadi. Ko'pgina metodik adabiyotlarda savol-javob mashqlarini bajarish fonetika ya'ni og'zaki nutqga o'rgatishning yagona bo'lmasa ham asosiy yo'li deb qarash kuzatiladi. Bu fikr bir tomonlamadir. Chunki muomala jarayonidan fikr almashish faqat savol-javobdangina iborat bo'lmay, balki murakkab va xilma- xildir. Shu bois ularning har birida talaffuzga e'tibor qaratish zarur: Masalan:

1. Salom-alik: *Guten Tag!*
2. Iltimos: *Herbert, gib mir bitte dein Buch*
3. Taklif: *Bitte, nehmen Sie Platz. Danke schon*
4. Tashakkur: *Danke, ich bin sehr froh. Nicht zu danken*
5. Ma'lumot: *Ich war gestern in de Stadt*

- Ach, so

6. Ko'rsatma: *Das sind Buecher und Hefte -Sind sie fuer uns?*

7. Savol: Ist dieses Buch interessant?-Ja, interessant.

8. Ma'qullah: Ist Peter der beste Schueler? - Ja, Peter ist der beste Schueler in unserer Klasse

9. Suhbat : Ist das moeglich?

10. Ma'qullah: Das stimmt. Ich habe ihn in de Stadt gesehen Inkor

- Es ist nicht moeglic. Er war gestern mit mir

11. Iltimos: Ich bitte dich , mir zu helfen. Rozilik: Aber gern

12. Iltimos: Komm bitte heute abend zu mir Rad etish: Weiss du ich bin heute abend sehr beschaeftigt. Ich kann zu dir nicht kommen

Fonetik interferensiyani bartaraf etishda keys metodidan foydalanish maqsadga muoffiqdir. Bu metodning asosiy obyekti fonetik o'zgarishlarga xos xususiyatlarda iboratdir. Bu tashkiliy keys bo'lib, ma'lumotlar vaziyat va savollar asosida tuzilgan.

Leksika, grammatika va talaffuz birliklari nutqiy namunalarda o'zlashtirilishi ommaviy tus olgan. Nuqt namunalarini ilmiy asosda tanlanadi, taqsimlanadi va mashqlar sistemasida taqdim etiladi. Nutq namunasi og'zaki nutqning ilgarilashi prinsipida, avvalan, tayyor jumla mavqeyiga, soniyan, undagi tarkibiy qismlar almashtirilib , o'rganilayotganda tipoviy jumla mavqeyiga molik bo'ladi. Mas. *Ich sehe ein Buch*, dastavval o'rganilishida yaxlit jumla tarzida olinadi. So'ngra nutq namunasining qismlari o'zlashtirilganda, tipoviy jumla huquqini oladi. Endi yangi leksik birlikni o'quvchi nutq namunasida mustaqil qo'llay oladigan payt keldi. Nutq namunasining so'roq va bo'lishsiz shakllari birinchi bor muallim nutqida tinglab o'rganiladi. Birdan ortiq misolda ega til hodisalari yuzasidan mavhumot keltirib chiqariladi, endi boshqalari o'quvchilar tomonidan nutqda qo'llay boshlanadi. Mas. *Ich sehe ein Buch* nutq namunasiga taqlidan *Ich lese ein Buch*, *Ich schreibe ein Brief* kabilar mustaqil jumlalardir.

Qoida: birinchi, kesim ikkinchi, to'ldiruvchi esa uchinchi o'rinda keladi. Metodik qonuniyat: nutq namunasi tanish, so'zlar yangi, so'zlar tanish, nutq

namunasi yangi. Har ikkalasi notanish bo'lishi mumkin emas. Notanish hodisani ushbu sharoitda muallim taqdim etadi. Jalon metodikasida nutq namunasining chet til o'rganish birligi huquqi tan olingan. (Turli mualliflar ushbu terminni o'zlari istagan so'zlar bilan yuritishadi: struktura, konstruksiya, model, tipoviy gap/jumla va boshqalar). Alqissa: chet tilda o'gzaki nutq shaklini o'rganishda (ruhshunoslikda "verbalizatsiya" prinsipida) nutq namunasini o'zlashtirishdan ish boshlanadi. Audiolingval metodning muhim prinsiplaridan ekanligini eslang. Zamonaviy chet til darsliklarining aksariyati ushbu prinsipga asoslanib tuzilgan.

### **O'quvchilarda til interferensiyasini bartaraf etish mexanizmi modeli**

Zamonaviy ta'linda o'qituvchi o'quvchiga nafaqat kelajakda qanday yashash, harakat qilish, rejalar tuzishni, balki mustaqil o'qish, o'z ustida ishlashni ham o'rgatadigan shaxs hisoblanadi. Ushbu vazifani amalga oshirish dars jarayonida ta'limning zamonaviy interfaol usullari, axborot kommunikatsiya vositalarini qo'llash, o'qituvchi va o'quvchilar hamkorligini yo'lga qo'yish zaruratini yuzaga keltiradi.

Biroq pedagogik texnologiyalar nafaqat o'quvchilarning yosh xususiyatlari, balki o'tilayotgan har bir fan, mavzu hamda ta'lim oluvchining bilim darajasini e'tiborga olgan holda qo'llanishi kerak. Har bir texnologiya tarkibida esa ma'lum bir metodika o'z aksini topadi.

Bugungi kunda respublikamizda til ta'limi, tillarni o'qitishning o'quv-uslubiy ta'minotiga katta moddiy resurslar ajratilayotgan bo'lsa-da, o'quvchilarning tillarni o'zlashtirish ko'rsatkichlari darjasasi ancha pastligicha qolmoqda. Ko'p hollarda esa chet tillarida gapirish ko'nikma va malakalarida ularning o'z ona tili aksenti yaqqol seziladi. Bu ona tili interferensiyasining salbiy ta'siri bo'lib, ularni bartaraf etish muayyan bosqichlarda tizimli ish olib borishni taqozo etadi. Shu maqsaddan kelib chiqib, biz umumiyl o'rta ta'lim maktablarida til interferensiyasini bartaraf etish mexanizmining takomillashtirilgan modelini ishlab

chiqishga harakat qildik. Ushbu modelda o‘qituvchining faoliyatini 2 bosqichda tizimli tashkil etish talab etiladi.

I bosqich o‘qituvchining darsgacha bo‘lgan faoliyatidan iborat bo‘lib, darsga tayyorgarlik ko‘rish davrini qamrab oladi. Bunda o‘qituvchi quyidagi omillarni aniqlashi va ular haqida qisqa nazariy ma’lumotlar berib, o‘quvchilarni interferensiya ehtimolidan ogohlantirishi kerak:

1) til interferensiyasini yuzaga keltiruvchi omillar – tillarning genetik va morfologik jihatdan qay darajada farqlanishi; tillarning qardoshligi; o‘quvchilarning o‘z ona tili; o‘quv muhiti shart-sharoitlarini aniqlashi va shu asosda darsga tayyorgarlik ko‘rishi;

2) sinf (guruh)dagi o‘quvchilarning til tajribalarini aniqlashi va shundan kelib chiqqan holda til tajribasida mavjud ko‘nikmalardan qanday foydalanish mumkinligini rejalashtirish;

3) o‘quvchilardagi til tajribasi va o‘rganilayotgan til o‘rtasidagi asosiy tafovutlarni tasniflash;

4) interferensiyaning turiga mos interferentiv xatolar, qiyinchiliklarni aniqlash. Bu o‘quvchilarda mavjud universal va individual qiyinchiliklarni aniqlash va ularni oson bartaraf etishga yordam beradi.

II bosqichda o‘qituvchi darslikda berilgan qoida, ta’riflarni tanishtirish jarayonida o‘quvchilarga interferensiya alomatlari haqida qisqacha nazariy ma’lumot berish orqali interferentiv xatolarning oldini olishga zamin yaratadi. Chet tildagi yangi tovush taqdimoti taqlidiy va tahliliy ish turlarini talab etadi. Ular metodika ilmida talaffuz o‘rgatishning imitatsiya (taqlid) va analiz (tahlil) metodlari nomlari bilan yuritiladi.

Yangi grammatik materialni taqdim etishda o‘quvchilarga beriladigan mashq va topshiriqlar tizimining to‘g‘ri tanlanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy til o‘qitish metodikasi va yangi tahrirdagi DTSda til materiallarini

o‘qitish o‘quv dasturining asosiy maqsadi hisoblanmaydi. Dars maqsadi kundalik hayotda tilni muloqot vositasi sifatida qo‘llashni talab etadi. Shunga ko‘ra grammatik qoidalar grammatik material xususiyatiga ko‘ra induktiv, deduktiv yoki leksik metodlardan birini tanlash orqali taqdim etiladi. Induktiv usuldagi taqdimotda avval misollar beriladi, keyin qoidaga o‘tiladi. Deduktiv metodda esa qoida (yoki nutq namunasi) berilib, so‘ngra misollarda mashq qilinadi. O‘xhashlik induksiyani, tafovut esa deduksiyani taqozo etadi. Shu bois u yoki bu usulni tanlashda grammatik hodisaning tabiat – shaklning o‘xhashligi, ma’noning oson ochilishi kabi metodik omillar hisobga olinadi. Induktiv va leksik metod yordamida grammatika vaziyatga oid holatlar, guruhlash, “Shaklga qarab gaplar tuzing” topshiriqlar orqali tanishtiriladi.

Yangi so‘zlar rasmlar yoki realiyalar, sinonim yoki antonim so‘zlar, imoshora yoki harakatlar, so‘z yasash, so‘z ta’rifi, matn ma’nosidan so‘z ma’nosini ilg‘ash quyidagi usullar orqali taqdim etilishi yangi so‘zni tez yodlab olish va tushunishga yordam beradi:

Taqdim etilgan til materialini mustahkamlashda til interferensiyasini bartaraf etishga qaratilgan mashq va topshiriqlar tizimi til sathiga ko‘ra tasniflanadi. Fonetik materialarni mustahkamlashda tovushlarni faol tinglash va farqlash, tovushni mustahkamlash, tez aytish, quloqni tinglashga o‘rgatish, urg‘uni to‘g‘ri qo‘yish, jumlanı taktlarga to‘g‘ri ajratish va to‘g‘ri ohangda o‘qish mashqlari, “Kichik sheriklar”, “Ortiqchasini top”, “So‘zga e’tibor qil”, “Ohang ko‘tariladimi yoki pasayadimi?”, “Bir xilmi yoki har xil?”, “Necha marta takrorlandi?” o‘yinlari muhum ahamiyat kasb etadi.

O‘quvchilarning o‘rgangan grammatik bilimlarini qo‘llay olish ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonida nutqqa tayyorlov, kommunikativ, so‘zning grammatik ma’nosiga mos shaklni to‘g‘ri tanlashga qaratilgan mashqlar beriladi.

Til interferensiyasini bartaraf etishda so‘zning leksik ma’nosini mustahkamlash, so‘zlarning ko‘p ma’noliligi, so‘z ma’nosiga yaqin so‘zlar hamda antonimlarni tanlashga qaratilgan mashqlar tavsiya etiladi.

Tadqiqot obyekti bo‘lgan tillararo interferensiyani bartaraf etishda ham o‘qituvchi–o‘quvchi, o‘quvchi– o‘quvchi hamkorligini yo‘lga qo‘yish egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni mustahkamlash, xatolarni tushungan holda tuzatish malakalarining shakllanishiga yordam beradi. Tizimlashtirilgan mashq va o‘yin texnologiyalari, AKT vositalari, differensiatsiyalab o‘qitish va baholash texnologiyalari esa o‘qitish samaradorligini oshiradi.

Mazkur bosqichlardan o‘quv dasturlari va darsliklarining yangi avlodini yaratishda keng foydalanish tavsiya etiladi.

Tillarni o‘qitishda til interferensiyasini bartaraf etish uchun o‘qituvchining darsga ikki bosqichli tayyorgarlik faoliyati va dars jarayonidagi faoliyatini maqsadli tarzda tashkil etish, o‘quvchilarda til interferensiyasining oldini olish va interferentiv xatolarni bartaraf etishga olib keladi. Bunda aks etgan vazifalarni stixiyali tarzda emas, sistematik tarzda izchillik bilan amalga oshirish zarur. Taqdim etilayotgan til interferensiyasini bartaraf etishning takomillashtirilgan mexanizmi modeli aynan shu holat ko‘zda tutilgan bo‘lib, tajriba-sinov jarayonida unda belgilangan vazifalarni amalga oshirish samarali natijalarni namoyon qildi.

### **Talabalarning og'zaki nutqidagi xatolarni tuzatish va ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar**

Tovush hech qanday ma’no kasb etmasligi mumkin. Biroq nutq so‘zlarning ma’nosini farqlash uchun xizmat qiladi. Jismoniy hodisa sifatida nutqning ovozi bir qator xususiyatlar, alomatlarga ega, biroq har bir o‘ziga xos til tizimida bu belgilarning bir qismi so‘zlar va so‘z shakllarining ma’nosini ajratish uchun ishlatiladi. Natijada, bu butun bir ovoz emas, balki uning ma’no-farqlovchi funktsiyasini bajaradigan qismi.

die Staat [a:] - satt [a]  
der Staat [a:] - statt [a]

Ushbu juftlikdagi so'zlarning ma'nosi birgina belgidan tovushning cho'ziqligidan [a:] kelib chiqadi -

die Ähre [m:] - die Ehre [ga:]  
die Bären [m:] - Beeren [ga:]  
das Bett [ɛ] – das Beet[e:]  
bitten [ɪ] - bieten [i:]

So'z juftlari ichida ma'noni ajratish  
der Mann [a] - mein [y]

dann [ɑ] - dein [y] - monoftongni differentsonga, ya'ni barqarorlikka - articulatsiyasining beqarorligiga zid ravishda erishiladi.

So'zlarning ma'nosi  
der Krieg [i:] - deydi Krug [u:]

Die Beete [a:] - Die Boote [o:]  
seriyasiga ko'ra.

Tilning balandligi darajasiga qarab  
leben [a:] - lieben [i:]  
mehr [e:] - mir [i]  
gro [o:] - deydi Gruff [u:]

Shunday qilib, nemis tilining vokal tizimida quyidagi belgilar mavjud: uzunlik - ko'plik; yaqinlik - ochiqlik; barqarorlik - lability; labializatsiya - labializatsiyaning yo'qligi; bir qatorga (old, o'rta, orqa) tegishli bo'lgan farq; So'zlarni ajratish uchun til darajasining darajasiga (past, o'rta, yuqori) qarab farqlash qo'llaniladi. Ovozning bu belgilari "ma'no-farq" yoki "fonologik" deb ataladi. Rus tilida semantik farqlovchi funktsiyasi, masalan, ifodalanuvchining qattiqligi - yumshoqlik: chang chang, dan - tribute, ladin - qoraqarag'ali.

Har bir til o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lgan vokalizm va noaniqlik tizimidagi tovushlarning o'ziga xos xususiyatlariga ega. Bu alomatlarga ko'ra, unli

va ovozsizlar tilda tasniflanadi va bu belgilarning buzilishi so'zning ma'nosiga, ya'ni semantik, fonologik xatoga olib keladi. Shunday qilib, nemis harflari va ularni yo'q qilish usullari haqida ba'zi xatolar.

Metod termini "ta'lim usullari yig'indisi" va "ta'limning yo'nalishi" ma'nolarida qo'llanadi. Birinchi ta'lim nazariyasida ishlatilsa (mas. og'zaki nutq o'rgatish metodlari, talaffuz o'rgatish metodlari), ikkinchi ma'noda uni o'qitish metodikasi tarixiga oid asoslarda uchratamiz. Mas. chet til o'qitishning tarjima metodi, to'g'ri metod, ongli qiyosiy metod, audiovizual metod va h.k.

Metodika ilmini rivojlantirish va uni yuksak pog'onalariga ko'tarishda L.V sherbaning shogirtlari va izdoshlari (I.V. Raxmanov, V.S. Setlin, A.A.Mirolyubov, o'zbek olimlari va boshqalar) ning hissasi ulkandir. Prof. Yefim Izrailevich Passov fikricha, metod o'quv jarayonida qo'yilgan maqsad sari yo'naltirilgan va nutq faoliyati turlari bilan bog'liq prinsiplar sitemasidir. Demak, prinsiplar metodni shakllantiradi. Bu yerda keng ma'nodagi metodik yo'nalish haqida so'z boryapti. (Passov, 1991) Prof. Y.I.Passov ta'biricha "prinsip-o'qitish jarayoni atalmish binoning poydevoridir". Tabiatda prinsiplar yo'qligi, faqat qonunlar borligi haqida bilish nazariyasida ma'lumotlar keltiriladi. Prinsip "asos bo'ladigan yo'l- yo'riq, qonun- qoida" ma'nosida ishlatiladi. Ta'limshunoslikda xilma-xil prinsiplar tizmasi bayon etiladi.

Prinsip tushunchasi bevosita o'quv jarayonini aks ettiruvchi metodik hodisani ifodalaydi, metod esa prinsiplar yig'indisining mavhumlashgan umumlashmasidir. Mas. og'zaki nutqning ilgarilashi prinsipi, til tajribasini hisobga olish prinsipi kabilar. Prinsip uch guruhni tashkil etadi: pisixologik, didaktik va sof metodik prinsiplar. Metodik usul yanada kichik tushuncha bo'lib, "yangi so'zning ma'nosini ochish usullari", "til materialini o'rgatish usullari" singari birikmalar uchraydi. Strategiya -yunoncha-strategia (stratos-qo'shin +ago yetaklayman) - ta'limjarayonini boshqarish, ya'ni yo'lga solib turish: o'qitish~si (umumiyo yo'nalish-ta'limmaqsadi): o'qitish~ si taktikasi ,texnologiyasi.

Texnologiya - (yunon-techne mahorat, ustalik +logos ta'limot) -muayyan jarayonni yurgizish usullarihamda vositalari: chet til o'qitish~ si, o'qitish~si/strategiyasi/taktikasi. Metodikaning kategoriyalarini ilmiy jihatdan bilish va ulardan ta'lim jarayonida to'g'ri foydalan olish ta'lim samaradorligini oshirish uchun xizmat qiladi

## XULOSALAR

Umumta'lim maktablari o'quvchilari va til o'r ganuvchilarga zamonvaiy pedagogik texnologiyalar asosida nemis tilidagi olmoshlarni o'rgatish metodikasi mavzusida olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar olindi:

1. Nemis va o'zbek tillaridagi olmoshlarning qiyosiy tahlili tillararo va madaniyatlararo interferentsiyani aniqlash imkonini berdi.
2. Lisoniy multimedia dasturlari, va AK texnologiyalarning olmoshlarni qo'llash bilan bog'liq ko'nikmalarni shakllantirishdagi didaktik xususiyatlari va metodik funktsiyalari aniqlandi.
3. Nemis tilidagi olmoshlarni zamonaviy pedtexnologiyalar asosida shakllanadigan retseptiv va produktiv grammatik ko'nikmalarini aniqlandi.
4. Kompetentsiyaviy, shaxsga yo'naltirilgan va kommunikativ faoliyatli yondashuvlar va ular amaliyotda umumdidaktik va metodik tamoyillar asosida amalga oshiriladi.

5. Nemis tilidagi olmoshlarni qo'llash bo'yicha grammatik ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan Personalpronomen, Possessivpronomen, Demonstrativpronomen dasturlari ishlab chiqildi.

6. Veb-kvest va blog texnologiyalar yordamida nemis tilidagi olmoshlarni o'rgatish algoritmlari ishlab chiqildi. Nemis tili olmoshlarini o'rgatish algoritmlari uch bosqichni, ya'ni tanishtiruv, protsessual va xulosa bosqichlarini o'z ichiga oldi.

7. O'quvchilarning nemischa nutqda olmoshlarni grammatik to'g'ri qo'llay olish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan veb-kvest va bloglar internet tarmog'ida yaratildi hamda ularning virtual manzillari taqdim etildi.

8. Lisoniy multymedia dasturlari, lingvistik korpus, veb-kvest va bloglar asosida o'quvchilarning nemis tilidagi olmoshlarni grammatik jihatdan to'g'ri qo'llay olish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan retseptiv va reproduktiv mashqlar ishlab chiqildi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. **Аворин Б.А.** Двуязычие и школа // Проблемы двуязычия и многоязычия. М., 1972. - С. 49 - 62.
2. **Азизян С.А.** Взаимодействие языков в процессе формирования грамматических механизмов в устной речи // Вопросы методики и психологии обучения. М., 1976. - С. 159-173.
3. **Айтберов А.М.** Теоретические основы обучения русской морфологии в дагестанской национальной школе: Автореф. дис. док. пед. наук. –М., 1989. -34с.
4. **Алексенцева Э.И., Ведель Г.Е.** Особенности овладения учащимися вторым языком в зависимости от их возраста. В сб.: Вопросы филологии и методики преподавания германских и романских языков. Воронеж, 1972. – С. 28.

5. **Алхазишили А.А.** Основы овладения устной иностранной речью. –М., 1988. -128 с.
6. **Аракин В.Д.** К постановке преподавания английского языка в тюркоязычной средней школе // Иностр. яз. в шк. 1949. - №1. - С. 7377.
7. **Арясова А.А.** Система упражнений для обучения устной речи на уроках английского языка в VII классе общеобразовательной школы. Автореф. дис. . канд. пед. наук. –Л, 1965. - 18с.
8. **Баранников И.В.** О сущности интерференции и специфика её проявления. В кн.: Тезисы научной конференции, посвященной проблемам двуязычия. - М., 1969. - С. 17-21.
9. **Беляев В.В.** Психологические основы усвоения лексики иностранного языка. –М.: 1964.- 184 с.
10. **Вайнрайх У.** Языковые контакты. Состояние и проблемы исследования. Киев ,1979, -264 б.
11. **Верещагина И.Н., Рогова Г.В., Языкова Н.В.** Методика обучения английскому языку: 1-4 классы: Пособие для учителей и студентов педагогических вузов. – 4- изд. – М.: Просвещение, 2008. – 223 с.
12. **Гальскова Н.Д.** Современная методика обучения иностранным языкам: Пособие для учителя. – 2–е изд. – М.: АРКТИ, 2003. – 162 с.
13. **Гальскова Н.Д., Гез Н.И.** Теория обучения иностранным языкам. –Москва: Академия, 2007. – 319 с.
14. **Джусупов М.** Звуковые системы русского и казахского языков. Слог. Интерференция. Обучение произношению. -Т.: Фан, 1991. -239 б.
15. **Джусупов М.** Лингводидактика и методика в полинаучной системе языкового образования. //Русский язык за рубежом, 2009, № 2, 26-32-б. 42.
16. **Жалолов Ж.Ж.** Чет тил ўқитиши методикаси: Чет тиллар олий ўқув юртлари (факультетлари) талабалари учун дарслик. – Т.: Ўқитувчи, 1996. – 368 б.
17. **Зимняя И. А.** Психология обучения иностранным языкам в школе. –М.: Просвещение, 1991. – 222 с.

18. **Карлинский А.Е.** Экспериментальное изучение лексической интерференции в прикладных целях // -Алма-Ата, 1989, с.60.
19. **Любимова Н.А.** Фонетическая интерференция. -Л.: Изд-во ЛГУ, 1985.-55
20. **Сайдалиев С.С.** Чет тил ўқитиши методикасыдан очерклар: Ўқитувчи ва талабалар учун қўлланма. – Наманган, НамДУ. 2004. – 204 б.
21. **Сатторов Т.Қ.** Бўлажак чет тили ўқитувчисининг услубий омилкорлигини шакллантириш технологияси. – Т.: ТДЮИ, 2003. – 192 б.
22. **Соловова Е.Н.** Методика обучения иностранным языкам. Продвинутый курс. – М.: ACT Астрель, 2008. – 272 с.
23. **Фокина К.В., Тернова Л.Н., Костычева Н.В.** Методика преподавания иностранного языка. – М.: Высшее образование, 2009. – 158 с.
24. **Хошимов Ў.Х., Ёқубов И.Я.** Инглиз тили ўқитиши методикаси. – Т.: Шарқ, 2003. – 302 б.
25. **Щукин А.Н.** Обучение иностранным языкам: Теория и практика: учебное пособие для преподавателей и студентов. – М.: Филоматис, 2004. – 416 с.
26. <http://www.ozon.ru/context/detail/id/4216858/>
27. <http://www.chtivo.ru/chtivo=3&bkid=1409233.htm>
28. <http://shop.top-kniga.ru/books/item/in/396416/>
29. [http://knigi.km.ru/metodika\\_prepodavaniya\\_inostrann](http://knigi.km.ru/metodika_prepodavaniya_inostrann)
30. <http://www.flip.kz/catalog?prod=98214>
31. <http://www.www4.com/w3468/617230.htm>
32. [http://www.mdk-arbat.ru/bookcard\\_all4.aspx?book\\_id=622905](http://www.mdk-arbat.ru/bookcard_all4.aspx?book_id=622905)